

AHMAD A'ZAM

ODAM ZAHRI

Kinoqissa tajribasi

QISHLOQ. CHOSHG'OH

Tog' oldi dasht.

Qir-adirlarni gul-gul yongan lolaqizg'aldoq bosgan.

Qir adirlarga o'ralgan qishloq.

O'rtani kesib ufqqacha qoramtir asfalt yo'l ketgan. Tez ketayotgan mashina oynasidan lolaqizg'aldoqlar xuddi mashinaning ikki tomonidan orqaga uchayotgandek ko'rinadi.

Moviy osmonning u er-bu erida oppoq bulutlar suzadi.

Bulutlarning qora ko'lankalari er bag'irlyadi.

Ko'm-ko'k g'allazorda SHamoldan paydo bo'lgan to'lqinlar bir-birini salobat bilan quvlab keladi.

Asfalt yo'lda so'fito'rg'ay pildiraydi.

Osmonda gala-gala kaptar uchadi.

Mashina oynasidan qishloq ko'rinadi. Ikki tomoni ko'm-ko'k qir-adir, na boSHi, na oxiri ko'rinadigan qishloq. Bu tomoni bahorda ko'klab, yozda sarg'ayadigan tepaliklardan dashtga chiqib ketadi, bu tomoni balandlab borib toqqa ulanadi.

Bir tekis ko'ringan ko'klikning tagida hayot qaynaydi.

Tuyachumoli o'z g'am-tashvishi bilan lo'killaydi. Chuchmomalarda asalari g'o'ng'illab, guldan gulga o'tadi. Chumoli, qo'ng'iz, yana biz otini bilmaydigan allaqanday hasharotlar g'imirlaydi.

Bir ilon o'ziga yaraSHA salobat bilan o'rmlaydi.

Sariq ilon shiddat bilan qochadi.

Yana bir ilon kulcha bo'lib olib, tilini chiqaradi.

Mashina lolaqizg'aldoq oralab uchib ketyapti.

Lolaqizg'aldoq orasidan ko'zoynakli ilon boSHini ko'tarib mashinaga qarayotgandek bo'ladi. Uning yonida yana bir Shunday ilon boSH ko'taradi. Tik boqqan ko'zlari sovuq.

Salgina olisda yastanib yotgan tog' ko'rinadi. Tog' uncha baland emas.

TOF YO'LI. ChOSHGOH

Toshloq yo'lda ikki odam ot qo'yib boryapti. Ularning egnidagi kiyimlari bugungi kun liboslari emas, engil yaktak, yoqasi ochiq ko'ylak, oyoqlarida choriq. Biri o'ttiz beSH, biri qirq beSH yoshlardagi odamlar. Uchragan har daraxt, har butaga sinchkov nazar solib, birovnimi yo bir narsanimi, quvlab keliSHyapti.

Atrof tog'u tosh, bo'zqoyalar.

Olisdan xuddi tandir og'zidek g'or ko'rinadi.

Otlar terga botib, ko'piklab ketgan.

YOSH OTLIQ: - Joni savil ekan! Ot charchadi, bu charchamadi-ya!

KATTA OTLIQ: - Savil bo'ladi-da, ajal quvib, jon xalqumiga kelgandan keyin.

QOChQIN toshdan toshga chaqqon sakrab, o'rlab boryapti. Har zamonda o'zini tosh panasiga olib, enishga - quvib kelayotganlarga olazarak qaraydi.

Atrof yana o'sha tog'u tosh, jon asari yo'qdek...

Sal narida g'or ko'rinadi.

Qochqin to'g'ri g'orga qarab tirmashadi.

YOSH OTLIQ:- Forni mo'ljal oldi-yov.

Kattasi ot jilovini bo'sh tashlaydi.

KATTA OTLIQ: Xudoning o'zi ishimizni o'ngradimi deyman. Toqqa chiqib ketsa ko'p ovora bo'lardik.

Forning ustki labida ko'zoynakli ilon bo'ynini yoyib, to'lg'anib turadi.

Qochqin g'or og'ziga chiqqanda pastdagilar uni ko'rib qoladi, kichigi kattasiga qamchi bilan qochqinni ko'rsatadi.

Qochqin g'or ichiga kiradi.

Quvib kelayotganlarning kattasi ot jilovini tortadi.

Haligi ilon g'or ichiga o'rmlaydi.

Quvib kelayotganlar otdan tushadi.

Otlarni chaqqon tushovlab, toqqa o'rlaydilar.

Ular g'or og'zida to'xtaydi. Kichigi kattasiga savolomuz qaraydi.

YOSH OTLIQ: - Kiramizmi?

Kattasi uning gapiga javob bermay, g'orga tikilib turadi, nimanidir o'ylab boshini chayqaydi.

Kichigi kattasiga xavotir bilan qaraydi.

Otning terisi dir-dir uchadi.

Ot egari qoshida qo'y junidan eshilgan jun arqon ildirib qo'yilgan.

KATTA OTLIQ: - Ichkarida nima bor? Axiyri chiqadi-ku. Joy qilaylik. Anavinaqadan boxabar bo'l.

Kichigi bir-bir g'orga, bir-bir atrofga, oyog'i tagiga alanglaydi.

KATTA OTLIQ: - Ehtiyoti shart-da. Arqon olib chiq. Qo'y junining isiga kelmaydi. O'zi, teginmasang tegmaydi, deyishadi, lekin jondor jondor-da.

Kichigi pastga, otlar turgan joyga qaraydi.
Otlar bir-birini iskalaydi.

Birdan g'or ichkarisidan baqiriq eshitiladi.
Katta otliq seskanib, g'orga quloq soladi.
Yosh otliq egarning ayil-pushtanini bo'shatgan holicha tashlab, g'orga tomon yuguradi.

Fordan yana:

- Voy, voy, o'lyapman! Yordam qiling! – degan bo'g'iq yolvorish chiqadi.

Katta otliq g'orga tomon bir odim tashlaydi-yu, to'xtab qoladi.
For og'zida gandraklab chiqayotgan qochqin ko'rinadi.
Uning ortidan bo'ynini shishirib turgan ilon ko'rinadi.
Qochqin gurs etib yiqiladi. O'mganini sal ko'tarib, ikki qadamcha emaklaydi, keyin boshi erga tushib, qimirlamay qoladi...
For og'zida yana bir ilon paydo bo'ladi.
Ikki otliq ikki ilonga qarab qotib qoladi.

O'rtada qochqin ramaqda jon g'uldiraydi. Ko'zi vahimada, odam tanimaydi. Bo'ynining ikki joyida juft teshiklardan qon sizadi.

Ilonlar izma-iz g'or ichkarisiga o'rimalaydi.

Quvib kelganlar qochqinning ustiga egiladi.
Kattasi uning yoniga tiz cho'kib, qo'lini ushlaydi. Yurak urishini bilmoqchi bo'ladi va og'ir bosh chayqaydi.

YOSH OTLIQ: - Ikki marta chaqibdi!

KATTA OTLIQ: Bittasi ikki marta chaqqanmi yo ikkitasimi?

YOSH OTLIQ: - Urgan joyi yaqin, bittasi Shekilli.

KATTA OTLIQ: - Bo'yindan chaqqanga davo yo'q. Qismat qisgani shu-da... E-e-eh, hatto gunohning ham chegarasi bor. Molini olding – bo'ldi, joniga nega teginasan. Yomonlik ham umrga o'xshab o'lchab berilgan.

Bularning gapi bugungi kun manzaralari ustida eshitiladi.

ADIR YO'LI. KUNDUZ

Tog'oldi adir. Yakkam-dukkam daraxtlar oralab bir odam eshagini yo'rttirib keladi. U qo'lidagi tayog'i bilan butaga o'xshagan daraxt tagini ko'rsatadi.

Unga ergashib kelayotgan mashina to'xtaydi.

Sherali mashinadan tushib, daraxt tagiga oshiqadi.

Eshak mingan odam yo'lda, eshakdan tushmay, hadiksirab qarab turadi.

Sherali buta orasiga egilib, bir ilonni ushlaydi. Yana qaraydi, ikkinchi ilonni ham ushlaydi. Yana o't orasiga qaraydi.

Sherali qo'lidagi ilonlarning birini boshidan tishlaydi-da, o't orasiga egilib, uchinchi ilonni tutadi.

Sherali og'zida bir ilonni tishlab, qo'lidagi ikki ilonni bo'ynidan tutib chiqib keladi. Ko'zini ilonlarga tik qadaydi. Qo'lidagi ilonlar boshini ko'tarib, uning ko'ziga tikilayotgandek. Morboz xuddi hozir o'zi tutgan ilonlar bilan tanishib, suhbat qurayotgandek.

Ergashtirib kelgan odam eshak ustida haykaldek qotib turadi.

BAYRAM. KUNDUZ

Qir-adirlar ko'm-ko'k, ora-sira qip-qizil qizg'aldoq gilamlari.

Olisdan odamlar davrasi, davrani har tomondan turli xil mashinalar qurshab olgan.

Navro'zga xos o'yinlar, kurash.

Navbat Sheraliga keladi. U xuddi hind morbozlariga o'xshab kiyingan. Lekin ustida o'zbekcha yaktak, Beo'xshovroq salla o'ragan, qo'lida o'zimizning oddiy surnay.

Sherali oldidagi savat qopqog'ini ochadi, avval bir, keyin ikkinchi ilon boshini ko'tarib, surnayga monand tebranadi...

Gilamcha ustida besh ko'zoynakli ilon, morboz ularning yoniga cho'zilib yotadi, ilonlarni qulochiga oladi. Ilonlarning hammasi boshini ko'taradi, ikkitasi morbozga tik qaraydi.

Tomoshabinlar qarsak bilan olqishlaydi.

Sherali beldan yuqori yalang'och bo'lib echinadi. Sandiq ochiladi, morboz sandiqqa yotadi. Uning ustidan ketma-ket ilonga to'la ikki quti ag'dariladi.

Keyin sandiq qopqog'i morbozu ilonlarning ustidan yopiladi.

O'rtada sandiq.

Odamlar xuddi sandiq ichida bir dahshat sodir bo'ladigandek, unga qo'rquv, hayajon, hayratda tikiladilar.

Tomoshabinlar orasida turgan Jamshid Sheraliga juda diqqat bilan tikiladi, ko'nglida nima kechyapti, bilish qiyin.

Faridning ko'zlarida oshkora hayrat va... hadik bor.

Ilon boshini ko'tarib morbozga tik qaraydi: uning ko'zlari, tabiiyki, juda sovuq.

Sherali ham ko'zlarini to'g'ri ilonga qadaydi: u ham kiprik qoqmaydi.

Sheralining nigohida hukmfarmo bir ifoda, mubham bir kuch bor, shu kuch ilonning ustidan bosayotgandek.

Farid seskanib, ko'zini olib qochadi.

Sherali bilan ilon bir-biriga ro'para, ilon lip etib boshini tushiradi.

Jamshid Sheraliga og'ir qarab qoladi.

CHORRAHA. SOAT 18.30

Dashtda ko'ndalangiga yastanib-cho'zilib tushgan qishloq.

Adirda yakkam-dukkan, yaydoq, soy bo'yining ikki tomonida siyrak dov-daraxt qurshagan hovlilar.

Mijoz poylayotgan kira mashinalarning tumshug'i, qayoqqa yo'l olishiga qarab, qarama-qarshi tomonga qaratilgan.

Kirakashlar mozorning pastak devori yonida to'dalaSHib, gurung quradilar.

Katta yo'lda kelayotgan «jip» sekinlay boshlaydi.

«Jip» eSHigining oynasi tushadi. Oynadan Faridning boshi ko'rinadi.

FARID: - Chandir SHU ermi?

O'tirganlar orasidan yosh kirakash irg'ib turib «jip» tomon shoshiladi.

YOSH KIRAKASH – Ha, ha, shu er.

FARID: - Morbozning uyi qaerda?

YOSH KIRAKASH: - Qaysi morboz? Qaerdan?

FARID: - Chandirmi, axir, Shu er?

YOSH KIRAKASH:- Chandir...bilasizmi, nechchi kilometr cho'zilgan? Qaysi Chandir? O'rama, Yakkatol, Omonqoya, Ayirg'ich... Keyin... ilonchilar shu o'rtada ham bor. Agar eyishga bo'lsa, biz ham topamiz. Dashtniki, toza. Zakonniy ilon!

Farid tashqaridan ko'rinmayotgan sherigidan allanarsa so'raydi. O'tirganlar «jip» tomoshasiga beriladilar.

Yosh kirakash Faridning bu yoqqa qaraSHiga mahtal turib qoladi. Farid yana Ko'rinish beradi.

FARID: - Bizga ilon emas, ilonchi kerak. Anov... Navro'zda chiqdi-ku? .

YOSHi o'tganroq kirakash, so'rgan odamga emas, yosh kirakashga sekin gapiradi.

KATTA KIRAKASH: - Sheralini so'rayapti. Omonqoyadagi...

YOSH KIRAKASH: - Shunaqa demaydimi? (Qo'li bilan ko'rsatadi). Bu yoqqa yurasiz. Shu, olti bilan etti kilometr orasida, Omonqoya degan joy chiqadi. Sherali morbozniki qaysi uy desangiz, bo'ldi, hamma ko'rsatadi. U odam...

YOSH kirakash yana gapirmoqchi edi, lekin «jip»ning oynasi vijillab ko'tariladi, mashina joyidan keskin qo'zg'aladi. Fildiraklari g'artillab ishqalanib, tagidan SHag'al uchadi.

YOSH KIRAKASH: - E-ha, qaerda ko'rganman desam, Navro'zga kelgan edi bular.

YOSHi o'tganroq kirakash uzoqlashayotgan «jip»ning orqasidan bir muddat qarab turadi-da, keyin bosh chayqaydi.

KATTA KIRAKASH: - Bir baloni boshlab kelyapti bular.

YOSH KIRAKASH: - Nega unaqa deysiz? Bir davo istab yurganlar-da.

KATTA KIRAKASH: - O'ttiz ikki go'lahga o't qo'ygan bular. Ma, nosdan ur. Aqling peSHlanadi.

Mozorni qarich o't bosgan.

O't orasida ikki ilon o't oralab o'rmlayotir.

Qishloq ko'chasidan «jip» ketib boradi.

Ilonlar xuddi mashinani ta'qib etayotganga o'xshaydi.

QISHLOQ KO'ChASI. KUNDUZ

(Sheralining bolaligi)

Qir-adirlarda uylar sochilib yotadi.

Ko'chaning ikki tomoni devori har xil, bir-biriga tutash, orasi ochiq hovlilar.

Etti-sakkiz chog'li o'quvchi bolalar maktabdan qaytadi.

Qalama devorga tutash tol atrofida chumchuqlar g'ujg'on uradi.

Qiy-chuvni eshitgan bolalar Shu yoqqa qarab yuguradilar.

Toldan yuqoriga qarab chipor ilon o'rmlaydi.

Bo'g'ot tagida polaponlar chirqillaydi.

Devorga, tolga to'pir-to'pir tosh, kesak uriladi, lekin birontasi ilonga tegmaydi.

Bolalar Shovqin-suron ko'taradilar.

Sherali elkasidagi latta jildi va qo'lidagi siyohdonni sinfdoshi Qarshiga tutqazadi-da, tolga tirmashadi.

Malikaning ko'zlarida hayrat va qo'rquv.

Bolalar baqirib yuboradi.

MALIKA: - Sherali!

BIRINCHI BOLA: - Chiqma, o'lasan!

IKKINCHI BOLA: - Chaqadi-ya! Zaharli-ku.

MALIKA: - Sherali deyaрман!

UCHINCHI BOLA: - Ustingga o'zini tashlasa!

QARSHI: - Sherali! O'lging kelyaptimi?

MALIKA: - Hozir tush! Buvish xolamga aytib beraman lekin.

Polaponlar tinmay chiyillaydi. Chumchuqlarning chirq-chirqi avjga minadi. Sherali ilonga juda yaqin borgan.

Qo'rqqanidan Malikaning ko'zlari ola-kula bo'lib ketgan.

Yo'lda eshak minib kelayotgan chol ko'rinadi.

Chol bolalarga, ilonga qo'lini uzatayotgan Sheraliga qiziqsinib qaraydi.

Sherali bir qo'li tol shoxida, bir qo'li bilan shap etib ilonning bo'ynidan tutadi, ilonni tortayotganida muvozanatini yo'qotib, chayqalib ketadi.

SHERALI: - Qochinglar!

Ilon erga to'p etib tushadi.

Chol eshagining to'xtasini qattiq tortib to'xtatadi, erga tikiladi.

Uning ko'zlari olayib ketadi.

Chang-chung ichidan ilonning boshi ko'rinadi, tilini chiqaradi.

QARSHI: - Musulmon ekan, ayri tilini chiqaryapti.

SHERALI: - Kesak otmanglar! O'zim...

Sherali issiq tuproqda to'lg'anib ketayotgan ilonning bo'ynidan mahkam changallaydi-da, bir qo'li bilan tanasidan tutadi.

Chol eshagini xalalab, jo'nab qoladi. Ilon bilan ovora bolalar cholga e'tibor qilmaydilar.

Ular Sheraliga uncha yaqinlashmay, davra olib to'xtaydilar.

MALIKA: - O'ldirib, yoqish kerak! Bo'lmasa, o'zi yo Sherigi uyingga borib o'zingni chaqadi!

Chol orqasiga qarab-qarab uzoqlashadi, eshagi tagidan chang ko'tariladi. Sherali Malikaga qarab ishSHayadi va... ilonni uning ustiga tashlamoqchidek harakat qiladi. Malika chinqirib qochadi, nariroqqa borib, yig'lab yuboradi.

MALIKA: - Ilon ushlamay o'lgur! Hozir borib Buvish xolamga aytib beraman!

Sherali tirjayadi va ilonni qo'yniga soladi.

Bolalar jo'r bo'lib hayrat bildiradilar:

- Vu-uy! Chaqmaydimi?

Sherali o'rtada, bolalar undan ikki-uch odim narida davra olib yo'lga tushadilar.

Qarshining qo'lida ikki jild, ikki siyohdon.

Ko'zlarida havas va g'urur.

QISHLOQ KO'CHASI, SOAT 18.35

Bir joyi asfalt, bir joyi shag'al, ancha yildan beri ta'mirlanmagan ko'cha. Farid «jip»ni yo'l terib haydaydi.

Uning yonida chorpahildan kelgan, ko'zlari qattiq Jamshid o'tiradi.

FARID: - Otam zamonida asfalt qilingan ekan.

JAMSHID: - Shuning ham boriga Shukr qil. Ishimiz o'ngidan kelsin ishqilib.

FARID: - AbduraSHid aka, Shuncha tajriba bilan qanday qilib...

JAMSHID: - Qulog'ing teshikmi deyman? Bo'lmasa kelishdik: men – Jamshid, sen - Farid!

FARID: - Yo'lga chiqqandan beri. «Men Farid, men – Farid» deyaverib tilim qavarib ketdi.

JAMSHID: - Otimni esa unut. Jamshid, Jamshidman! Xufya tutishni qachon o'rganasan. «Ilon emas, ilonchi kerak», deding. Ular so'ramadi-ku, xo'p deb qo'yaver. Nima qilasan izoh berib?

FARID: - Xo'p, xo'p.

JAMSHID: - Borganimizda ham og'zingga ehtiyot bo'l. Men indamasam, sen ham indama.

FARID: - Xo'p, xo'p. Aytganingizday bo'ladi.

JAMSHID: - Endi boyagi... tajribaga kelsak, bu ishdan xudoga ham firib beradiganlar bor. Sirtidan farqiga bormasang: kanifolmi, elimmi yo zaharmi... yomon tushirdi lekin, yana ham kim biladi, uni ham tushirishgan bo'lishi mumkin.

FARID: - Shundan beri yo'qmi?

JAMSHID: - Yo'q. Xorogga o'tib ketdimi yo Varzobidami, xudo biladi? Lekin topiladi! Afg'onda bo'lsa ham oyog'ini erga tegizmay olib kelishadi. Ahmog'-ey! Tupkanning tagiga kirsa ham topishimizni biladi, lekin qochadi.

Farid ko'chaning chuqur-chopiga to'g'ri kelgan «jip» rulini buradi. Jamshid yo'l qarab o'ylanadi.

FARID - Ey-y...

«Jip» sekinlaydi.

JAMSHID – Ha?

FARID – Bosdimmi?

JAMSHID – Nimani?

FARID – Ilon!

JAMSHID – Hayda-e! Shu ham yurak bo'ldimi? «Jip» ichida o'tiribsan-ku.

Yo'l changib qoladi.

UY. TUN

(Jamshidning xotirasi)

Jamshid uy egasi – elliklarga borgan rus kishiga qo'ynidan og'zi so'rg'ichlangan kichik kolbani uzatadi.

Uy egasi kolbani avaylab oladi.

U kolbani chiroqqa tutib ko'radi, kolba ichida sarg'ish kristallga mamnun qaraydi.

Jamshid ham unga qarab iljayadi.

Uy egasi kolba og'zidagi so'rg'ichni sindirib, pinset bilan jinday kristall olib, shaffof shisha idishchadagi suyuqlikka soladi.

Idishchaga qarab turgan Jamshidning rangi o'cha boradi.

Idishchadagi suvda ipir-ipir sarg'ish quyqalar suzadi.

Uy egasi avval ajablanadi, keyin jahllanib, Jamshidga qaraydi.

Jamshid Shosha-pisha kolbani qo'lga olib, sinchiklab tikiladi.

Uy egasi undan ko'z uzmaydi.

JAMSHID (rus tilida, jinday aksent bilan): - Fedor Dmitrich! Xayolimga ham kelmabdi, meni chuv tushirishlari. Oyog'idan osaman! Pulingizni o'ylamang, ertagayoq etqizdiraman

FEDOR DMITRIEVICH (rus tilida): - Boshimga uramanmi pulni! Kelishdikmi - molni keltir. Bo'lmasa... o'zing bilasan. Boshqa joyda ishni yo'lga qo'y. Faqat tezroq.

JAMSHID: - Qanaqa yo'l.

FEDOR DMITRIEVICH: - Bilmayman! DuSHanbaga ishonch yo'q. Shu erda tashkil qilasan. Qilolsang, tirik qolamiz, qilolmasang, sen ham, men ham... Hayotimiz qil ustida. Tushundingmi?

JAMSHID: - Tushundim, tushundim...

Uy egasi unga uzoq tikilib qoladi.

QISHLOQ KO'CHASI

Burilishda maktab, darsdan qaytayotgan to'p o'quvchilar ko'rinadi. Farid «jip»ni sekinlatadi.

MAKTAB, SINFXONA. ChOSHGOH

(Sheralining bolaligi)

Sinf o'quvchilarga to'la. Muallima XOSIYAT TO'RAEVA darsni tushuntirib bo'lib, endi o'quvchilardan navbatma-navbat so'rayapti.

X.TO'RAEVA:- Qani, Egamberdieva, yurtimizda nimalar bor ekan?

MALIKA: - YUrtimizda tog'lar, cho'llar, sahrolar, dengiz, ko'llar bor. YAna... vodilar bor... E-e, ma-allim, Shu «vodi» nima degani o'zi?

Xosiyat To'raeva SHirin jilmayadi:

X.TO'RAEVA: - «Vodi» emas, «vodiy-y». Vodiy - atrofini tog'lar qurshagan pasttekislik. Unda hamma narsa o'sadi. Tabiati boy bo'ladi. Qani, Nosirov, endi sen ayt-chi, tabiatda qanaqa jonivorlar uchraydi?

Qarshi o'rnidan turadi-da, bir zum peshanasini tirishtirib turadi.

QARSHI: - Burgut.

O'kuvchilar gur-r etib kulib yuboradi, Xosiyat To'raeva yana mayin jilmayadi.

MALIKA: - Voy, burgut jonivorga kirmaydi-ku?

QARSHI: - Joni bor-ku?

Xosiyat bir zum o'ylanadi. Sinfxonada past g'ovur-g'uvur boshlanadi.

X.TO'RAEVA: - Bu ham to'g'ri Lekin jonivorlar turlarga bo'linadi. Parrandalar, hayvonlar, sut emizuvchilar... Burgut – qushlar oilasiga kiradi.

Sheralining ko'zlari quvlik bilan yonadi. O'zini o'qituvchining gaplarini tinglayotgandek ko'rsatib, qo'lidagi chipor ilonni sekin polga tushiradi.

X.TO'RAEVA: - Xo'SH, Nosirov, yana qanaqa jonivorlar bor ekan?

Qarshi yana peshanasini tirishtiradi va birdan taraSHA tushgandek gapiradi.

QARSHI: - Ilon!

MALIKA: - Ilon hayvon emas.

Qarshi endi qo'li bilan ko'rsatadi.

QARSHI: - Ana, ilon.

Xosiyat To'raevaning birdan rangi dokaday oqaradi, bir sakrab stolga chiqadi-da, chinqirib yuboradi.

X.TO'RAEVA: - Viy-y! Men qo'rqaman! Yo'qotinglar!

O'qituvchining chinqirishini kutib turgandek, bolalar birdan qiy-chuv ko'taradilar. Kim parta ustiga, kim o'rindiqqa chiqib oladi.

Xosiyat To'raevaning dod-voyi o'quvchilarinikidan oSHib tushar edi.

O'quvchilar orasida, qo'rqsa-da, o'zini bosiqroq tutgan Malika partasida tirjayib o'tirgan Sheraliga ta'na bilan tikilar edi...

Quyosh qizarib botayotir. Qishloq ustiga bir tekis harir choyshab - g'ubor pardasi tortilgan.

Poda qaytyapti.

Qirdan enayotgan yuk mashinasi ortidan botayotgan quyosh nuriga belangan sariq-qizg'ish chang ko'tariladi.

O'zi ko'targan chang-gard ichida kelayotgan mollar xuddi suzib chiqayotgandek ko'rinadi.

Poda kutishga chiqqan Malika o'pkasi to'lib, Sheralining onasi - BUVISHga arz qilyapti:

MALIKA: - To'raeva ma-allim stolning ustiga chiqib ketdi. Baqirib yig'lab yubordi.

Buvish ham tashvishga tushib qoladi.

BUVISH: - Voy, yashshamagur! Direktor aka bilmadimi, ishqilib?

MALIKA: - To'polonni eshitib o'zi keldi sinfga! Ertaga katta tanaffusga qo'yar ekan... Maktabdan haydaSHsa, yomon bo'ladi-ku! Anov kuni buningiz meni ham qo'rqitdi, gazandasini ustingga tashlayman deb...

BUVISH:- Hay, qo'lginasi sinsin! Seni qo'rqitdimi, seni-ya? Otasiga aytib bir urdirmasam!

Malika xavotirga tushadi.

MALIKA: - Otasi urmasin, qulog'idan cho'zsin. O'zi ham... juda qo'rqoq ekan-da To'raeva ma-allim. O'qituvchi ham Shunday bo'ladimi? Keyin bolalar ham Shovqin solishdi. Sherali aytdi, chipor, zahari yo'q ilon ekan.

Buvish Malikaga mehr bilan termiladi.

BUVISH: - Xo'p, aytaman. Faqat qulog'idan cho'zsin, a? Og'ritmasin...

Malika boshini silkib turadi.

QISHLOQ KO'ChASI. 18.40

Ilang-bilang ko'cha, bir-biriga ulanib ketgan pastu-baland devorlar.

«Jip» to'xtaydi.

Farid oynadan boshini chiqaradi.

Yo'l yoqasida hangomalashib o'tirgan ikki yigitning birovi «jip» yoniga keladi.

FARID: - Sherali akaning uyi qaysi?

YIGIT: - Morboznikimi?.. To'g'ri boraverasiz, ko'prik keladi, ko'prikka chiqmay, Shunday o'ngga burilasiz, yo'lning o'zi borib taqaladi. Nosrang darvoza.

«Jip» joyidan qo'zg'aladi.

Hovlilar «jip»ning ikki yonidan suzib o'ta boshlaydi.

Jamshid xayoli qochib, yo'lga befarq tikiladi.

UY. TUN

Fedor Dmitrievich va Jamshid.

Tokchada ikki qo'l telefoni, ikkalasining ham akkumulyatori olib qo'yilgan.

FEDOR DMITRIEVICH: Bizning ishimizda xato o'lim degani. Dudarevni eshitgandirsan?

JAMSHID: - Chalaroq.

FEDOR DMITRIEVICH: - Mana, qara, ahmoq odam-da. Ikki yuz gramm bilan qo'lga tushib, ilmiy tajriba uchun to'plaganman, depti. Yana gazetalarga interv yu ham beribdi. DuShmanlari ataylab uyushtirgan emish. Shuncha narsani-ya?! Olim! Och-da, o'zim sotaman degan. Bu to'g'ri odam, bizga begona, sinalmagan, deb xudoning zorini qilganman. Bu xalqaro avtoritet, hech kimning haddi sig'maydi, deb aytishgan. Mana haddi!.. Bu yoqda sen ishni pachava qilib o'tiribsan.

JAMSHID: - Fedor Dmitrich, men u ablahni topaman.

FEDOR DMITRIEVICH: - Uni sensiz ham topadiganlar bor. Lekin hozir payti emas. Vaziyat notinch. Olimni gullagani qo'ymaslik kerak. Lekin qattiq qo'riqlashyapti. Gullasa, birpasda sizlarga ham chiqadi. Bizdagilar bilan sizdagilarning aloqasi yaxshi. Shuning uchun yangi kanal toza bo'lsin. Eskilardan birontasini aralashtirma. Boshdan ishni puxta qil. Kallang bilan javob berasan. Oxirgi imkon senga.

JAMSHID: - Kalla ikkita emas, bitta. Tushunaman.

KAPTARXONA. SHOM

(Sheralining bolaligi)

Tog' etagida Sherali bilan Qarshi, oralari uch-to'rt qadam, to'rt tomonga alanglab, tezak terib yuribdilar.

Nariroqda ikkalasining eshaklari.

SHERALI: - Kulcha bo'lib yotgani tezakka o'xshaydi. Ko'zingga qara. To'raevaga o'xshab chiyillab yurma tag'in.

QARSHI: - Shu vaqtgacha ko'rmagan ekanmi, a? Yomon qo'rqdi lekin.

SHERALI: - Bir xillar ko'rdimi, tamom! Yuragi yoriladi.

QARSHI: - Men unaqa qo'rqmayman. Lekin ko'zini ko'rsam, hamma yog'im muzlab ketadi.

SHERALI: - Ilon ko'zini yumib-ochmaydi-da, mana bunaqa qilib. Nima, haligi, kiprigi yo'q. Ko'zini yummay, odamga to'g'ri qaraganiga qo'rqinchli ko'rinadi, bilding. Asli uning o'zi odamdan qo'rqadi.

QARSHI: - Odamni quvishi-chi?

SHERALI: - Achchig'ini chiqarsang, eshak ham tishlaydi.

QARSHI: - E, sendan qo'rqadi-da. Bizlarga o'xshaganni pisand ham qilmaydi. Ko'rganda qochish u yoqda tursin, qimirlamaydi ham. Anovi Ismat aka bor-u?

SHERALI: - Ha. Bo'yni ma-munaqa qiyshiq odam.

QARSHI: - Shu kishining otasi yoldor ilonni ko'rgan ekan. Besh kishi mingbosh tergani toqqa ketayotgan ekan, yo'lda naqsh solingan, katta odamning soniday keladigan bir bolor yotgan emish. Yana yoli ham bor ekan. Qimirlamabdi.

SHERALI: - Aytdim-ku, odamning o'zi teginmasa, ilonning ishi yo'q.

QARSHI: - Ishi yo'g'-a! Dumi bilan bir ursa! Lekin bularga qarab ham qo'ymabdi. Bular ham aravaning ustida qotib turavergan. Keyin, xudoga Shukr, tirik qoldik, deb, asta orqaga qaytib, boshqa yo'ldan ketishgan. Bunaqalari bizday bolalarni liq etib yutib yuborar, a?

Sherali ko'zini qisib quyoshga qaraydi: vaqtni chamalaydi.

Qarshi ham atrofga olazarak qaraydi.

QARSHI: - Ularning podSHosi bo'lar ekan. Balki Kaptarxonadagilariniki Shudir. Er tagidan qirq yilda bir chiqadi, deyishadi. Bo'lsa, Shu erlarda-da, a? Otini aytish kerak emas edi.

Rangini toshdan farqlash qiyin bo'lgan juda katta chipor ilon vahimali yotadi. Uzoqdan qaraganda uning tosh orasida yotgan oddiy ilon ekani, bolalarning undan o'n-o'n besh qadamcha narida tezak terib yurgani ko'rinadi.

Quyosh ufqqa yonboshlayotir.

Ikki jo'ra tergan tezaklar katta-katta to'rvalarga joylangan.

Sherali bilan Qarshi ikkalasi ham o'z to'rvasi utida o'tirib, tin olyapti...

QARSHI: - Sherali, katta bo'lsang, Shu... Malikani olasanmi?

Sherali o'ng'aysizlanadi.

SHERALI: - Ha, nima edi?

QARSHI: - Shundan boshqasi qurib ketdimi?

SHERALI: - Boshqasini nima qilaman?

QARSHI: - Endi bo'maydi-da senga.

SHERALI: - Nimaga bo'maydi?

Qarshi sal chaynaladi.

QARSHI: - Endi, Shu.. Opasi qochib ketgan.

SHERALI: - Kim aytdi senga qochib ketgan deb?

QARSHI: - Anavi... Surxonmi, purxonmi degan joyga birov bilan...

SHERALI: - Hech ham qochmagan, tentak, to'yi bo'ldi-ku.

QARSHI: - O'zing tentak. Oldin qochib ketgan, keyin to'yi bo'lgan.

SHERALI: - Sen nimani ham bilar eding.

QARSHI: - O'zing nimani bilasan? Topganing Shu bo'lsa: opasi bunaqa, o'zi-chi, ar-riq, non emaydimi, bilmaysan. Oyog'i ham chillakcho'p, yursa, sinib ketay deydi. Jibljibonga o'xshab bidirayveradi...

SHERALI: - Sen, ey, og'zingga qarab gapir!

QARSHI: - Sendan qo'rqmayman. TaraSHani olaman deb...

SHERALI: - Kim tarasha?

Sherali Qarshining yoqasiga tarmaSHadi.

Ikki jo'ra jiqqamuSHt urishib ketadilar.

Alamdan oxiri avval Qarshi, keyin Sherali yig'lab yuboradi.

Janjal to'xtagan. Ikkovi ham jim. Ko'zlarini uqalab, nafas rostlab, bir-birlariga er ostidan qaraydilar. Unisi qarasa bunisi, bunisi qarasa unisi ko'zini olib qochadi.

Qarshi turib, eshagini to'rvaga o'nglaydi.

Sherali ham eshagini to'rvasiga to'g'rilyadi.

Qarshi to'rvasini quchoqlab ko'taradi, to'rva uzangigacha boradi, Qarshi inqillab chiranadi, ortishga kuchi etmaydi. Eshak yurib ketadi, to'rva erga tushadi...

Sherali unga zimdan qarab turadi-da, keyin o'zi ham to'rvasiga yopishadi.

Sheralining eshagi yurib ketgani yo'q, lekin to'rva egarga tiralib qolgan, Sherali, «him»lab Shu kuchanadi, ammo natija yo'q.

Qarshi o'z to'rvasiga o'tirib Sheralining chiranishiga qarab turibdi, biladi - borib himo bersa, bas, ammo oriyat kuchli.

Sherali alam bilan botayozgan quyoshga qaraydi.

Qarshi ham qarab qo'yadi.

Ikkovi ham birdan to'rvalariga yopishadilar. Bir yoqda unisi, bir yoqda bunisi, ikkalasi alam bilan, halloslab, chiyillab, ha-halab chiranadi, foydasi yo'q.

Yana to'rva ustiga o'tirib nafas rostlaydilar.

Sherali er ostidan Qarshiga qaraydi.

Qarshi yuzini buradi.

SHERALI: - Men olaman desam, sen yomonlayverma-da endi.

QARSHI: - Ikkovimiz jo'ra-ku, uning nima keragi bor o'rtamiz-da?

SHERALI: - Mahliyo xola onam bilan dugona. Sherali ilon o'ynab yurishni tashlasa, unga qizimni beraman degan.

Qarshi Sheraliga yalt etib qaraydi.

QARSHI: Men o'zi Malikani uni yomon ko'rmayman. Faqat.. uni olsang, men kim bilan jo'ra bo'laman?

SHERALI: - Shu bilan jo'rachiligimiz buzilmaydi-ku.

QARSHI: - Buziladi. Malika baribir oramizga suqulib kiradi.

SHERALI: - Kallang ishlaydimi? Kattalarga qara, xotini bo'lsa ham jo'ra bo'lib yuraveradi.

Qarshi kiftini qisadi.

SHERALI: - Sen ham, ana, Maxfiratni ol. Ar-riq emas. Malika ikkovi dugona. Biz ikkov jo'ra. Maza bo'ladi.

Qarshining labidan ip qochadi.

QARSHI- Yarashamizmi?

SHERALI: - Mayli. Chinaqayingni uzat.

QARSHI: Avval sen. Urushishni birinchi o'zing boshlading.

Sherali quvlik qiladi.

SHERALI: - Hozir qorong'i bo'ladi. Men ilondan qo'rqmayman.

Qarshi yana botayotgan quyoshga qaraydi.

Quyosh kattakon, qip-qizil, pastki qismi erga tekkan.

Qarshi jimjilog'ini cho'zadi.

QARSHI: - Mayli, kel, ikkovimiz birdan...

Ikki jo'ra jimjiloqlarini chalishtiradilar.
Sherali Qarshining to'rvasiga qarab yuradi.
Ikkovlashib Qarshining, keyin Sheralining eshagiga to'rvalarni ortadilar.

Quyosh yarmigacha botgan.
Eshaklarning harakati ildam.
Boyagi ilon sekin harakatga keladi va tog'u toshda farqlanmay qoladi.

QARSHI: Malikani oladigan bo'lsang, endi Shu iloningni tashla. Onasi bekorga aytmaydi.

SHERALI: - Hali katta bo'lishimga qa-ancha bor... Ungacha bir gap bo'lar.

Bolalarning gaplari qizg'ish ranglar va kechki SHafaq yog'dusiga chulg'angan tog' yo'lidan eshitilib boradi.

SHERALINING HOVLISI. SHOM

Odatdagi oqSHom tovushlari: it hurgan, mol mo'ragan, qo'y ba'ragan, olisdan traktorning tarillashi keladi.

Qishloqning odatiy manzaralari.

Hovli o'rtasidagi labi beton qilingan quruq hovuz bo'yida Jamshid bilan Farid pastdagi ilonlarni tomosha qiladilar. Sherbek hovuz ichida, ko'zoynakli ilonlar orasida.

Etti-sakkiz ilon baravariga boshini ko'tarib, bo'ynini shishirib, Sherbek qayoqqa yursa, Shu yoqqa boshini buradi.

Sherbek bir qo'lidagi sim ilgak bilan ilonning bo'ynini silaydi, bir qo'lini uzatib, boshqa bir ilonning bo'ynini qitiqlab qo'yadi.

Kattaroq ilon vish-sh etib Sherbek tomonga tashlanadi.

Farid muloyim tortib qolgan.
Jamshid hayratini uncha bildirmaydi, lekin ko'zlari sergak.

JAMSHID: - Zahar tishi olinmaganmi?

SHERBEK: - Olinmagan. Ko'rsataymi?

JAMSHID: - E-e, qo'y. Tinchlik kerak... Seni chaqmaydimi?

SHERBEK: - Ehtiyotini qilmasa, chaqadi. Ilon-da bu. Birdan chaqmaydi. Agar ustiga borib qolmasangiz. Birinchi ogohlantiradi, men borman deb. Keyin og'zini ochib keladi. Ana Shunda chaqadi.

FARID: - Qo'rqmaysanmi?

SHERBEK: - O'rganib ketganman. Azob bermasangiz, teginmaydi. Bunga ham tinchlik kerak.

Darvoza tomondagi yo'lakdan Sherali keladi. Qo'lida qalin bo'z xalta, xalta ichida nimalardir qimirlaydi.

Jamshid sergak tortadi, Sheraliga tikiladi.

Sherali mehmonlarga bosh irg'aydi.

SHERALI: - E, salom alayko'm! Xush kelibsizlar, mehmonlar.

Farid uning qo'lidagi xaltadan ko'z uzmay, o'zini orqaga olishga shaylanib turadi.

Sherali xaltani o'g'liga uzatadi.

Sherbek indamay xaltani oladi-da, salmoqlab ko'radi.

Sherali Jamshid va Farid bilan qo'SH qo'llab ko'rishadi.

Jamshid ko'rishib bo'lgandan so'ng Sheralining qo'liga sin soladi. Sheralining bir jimjilog'i yo'q edi.

Farid o'zining ko'rishgan qo'liga xavfsirab qarab qo'yadi.

Sherbek xaltaning og'zini echib, ichidagini to'kadi.

Erga tushgan ko'zoynakli ilon rostlanib, boshini ko'targanicha Sherbekka tikilib oladi.

SHERBEK: - Zo'r ilon-ku. O'zingiz ushladingizmi?

SHERALI: - Yo'q, Sadriddinning bolalari. Bularni quvibdi. Rosa charchatib, keyin ushlagan. (Mehmonlarga o'girilib) Tog'u toshda yovvoyi yurgan ilon baquvvat bo'ladi. Qarang, bularga bir yarimta keladi. Vishillashini ko'ryapsizmi?..

Sherbek bo'ynini yoyib turgan yangi ilonga mahliyo turib qoladi, chuqurdagi boshqa ilonlar boyagi alpozda boshini unga qarab burib olgan...

SHERALI: - Qani, mehmonlar, ichkariga. Sherbek, bo'ldi, sen ham chiq. Choy-poyga qara.

SHERALINING UYI. SHOM

Jamshid, Farid, Sherali ko'rpachada, xontaxta atrofida o'tiradilar.

Sherali fotihaga qo'l ochadi, Jamshid va Sherbek ham uning harakatlarini takrorlaydilar.

Elkasida dasturxon, qo'lida qand-qursli likopchalar qo'yilgan patnis bilan Sherbek kiradi.

YArmi ochiq eSHikda Malika to'rtta non ushlab, Sherbekning chiqishini kutadi.

SHERALI: - Mehmon, so'rang.

Jamshid unga ajablanib qaraydi.
Sherali bir zum hayron bo'ladi-da, izoh beradi.

SHERALI: - Bu erlarda mehmon birinchi so'rashadi.
JAMSHID: - Ha... Shunaqami? Yaxshimisiz? Sog'liq joyidami?
SHERALI: - Xudoga Shukr. O'zingiz yaxshimisiz? Yaxshi keldingizmi?..

Farid nima qilishni bilmay, boshini tez-tez irg'aydi.
Jamshid Faridga imo qiladi.
Farid irg'ib o'rnidan turadi.

JAMSHID: - Otingiz Sherali, a?
SHERALI: - Shunday.
JAMSHID: - Mening otim Jamshid. Nechchidasiz?
SHERALI: - Ellikdan oshdim.
JAMSHID: - Aniq nechchida?
SHERALI: - Xudo bergan umr, ellik ikki.
JAMSHID: - Qariyb teng ekanmiz...
SHERALI: - Siz yosh ko'rinasiz, Jamshid aka. Biz dala havosida kuyib ketganmiz-da.
JAMSHID: - Bularni o'ynatishdan boshqa yana nima qilasiz?
SHERALI: - Bolaligimdan Shunga ishqibozman. Hammada har xil qiziqish bo'lar ekan. Bizga Shundan tekkan. Qo'ynimda ham olib yuraman.
JAMSHID: - Chaqmaydimi?
SHERALI: - Yigirma martacha chaqqan. Bir-ikki marta reanimasiyaga ham tushdim. Lekin tashl olmayman.
JAMSHID: - Buning ham xarajati bordir, tirikchilik nimadan?
SHERALI: - Zootexnikman. Bizda chorva, qo'y ko'p, besh-to'rt tanga tushib turadi. Cho'ponda ham picha qo'y bor...

Derazadan Faridning yo'lakdan ikki qo'ltig'ida ikki qog'oz xalta bilan kelayotgani ko'rinadi.

SHERALINING HOVLISI. SHOM

Farid xaltalarni Sherbekka uzatadi.
Sherbek o'zini orqaga tashlab, qo'lini to'lg'aydi.

FARID: - Ol, uka. Bunaqa payti qo'lni qaytarish degan narsa bo'lmaydi.
SHERBEK: - Hamma narsa etarli o'zimizda. Ovora bo'psiz.
FARID: - Hech kim etmaydi deyayotgani yo'q. Quruq qo'l bilan kelmaymiz-ku...

OSHXona derazasidan Malika o'g'liga qaraydi.

SHERALINING UYI. SHOM

Jamshid piyoladagi choyni ho'plab, bir zum jim qoladi.

Sherali hovuzdan beriroqda gurung qurgan Sherbek bilan Faridga derazadan qarab o'tiradi.

JAMSHID: - Sherali jo'ra, Shularni ko'paytirsang bo'ladimi?

SHERALI: - Bo'ladi. Lekin buning joyi dasht, tog'u tosh-da.

JAMSHID: - Shu erda, uyingizda-chi?

SHERALI: - Uyda? Buncha gazandaning kimga keragi bor?

Jamshid bir zum kaftidagi piyolani aylantiradi, keyin Sheraliga ko'zini qadaydi.

JAMSHID: - Kerak. Masalan, bizga.

Sherali ham unga savol nazari bilan qaraydi.

JAMSHID: - Nima deysiz?

SHERALI: - Jamshid aka, men asli bunaqa narsalarga qarshiman. «Qizil kitob»ga kirgan ilonlar ham odamlarning nafsigacha em bo'lyapti. Toshkentda hatto restoranlarda ham ilon SHO'rva buyurish mumkin. Bu qanaqa moda bo'ldi o'zi? Kuchuk, tipratikan... Halol - haromning farqlamay qo'yishdi. Qo'chqor bilan buqaning anavinaqa joyi ham quvvat bo'ladimi? Firt bez-ku! Janubiy Amerikada «iguana» degan kasratki - kaltakesak delikates ekan. Birov echkemarning go'SHTi foydali deb gap chiqarsa, tamom-da. Kasratki zotiga qiron keladi! Bu biznes degani biznes emas, bir balo bo'ldi.

JAMSHID: - E-e, men do'xtir buyursa ham emayman. Shu ham biznes bo'ldimi? Moskvalarda uyda ilon saqlash rasm bo'lib, bitta kobra ikki yuz dollarga chiqqanda ham aralashmaganman, sizga aytsam...

SHERALI: - Unda, ko'p ilon nimaga kerak?

JAMSHID: - Zaharini olishga. Shuni yo'lga qo'yasiz, deb keldik.

Sherali birdan sergak tortadi...

SHERALI: - Men bunaqa ishlarga aralashmayman.

JAMSHID: - Nima, zaharini olish qiyinmi?

SHERALI: - Bilganga qiyin emas. Lekin qilmayman. Xavfli.

JAMSHID: - Qo'ysangiz-chi. Ilon o'ynatish bundan xavfli-ku. Ayniqsa zaharlisini.

Sherali bir pas indamay, tashqariga qarab turdi.

Farid chaqqon sakrab, olmaning odam bo'yidan balandroq joyidan tepadi.

Sherbek berilib tomosha qiladi.

Elkasida o'roq aylantirib Elbek ham keladi.

SHERALI: - Men xavfli deganda qonun buzishni aytyapman.

Jamshid achchiq iljayadi.

JAMSHID: - Nima, hamma qonunga amal qilyaptimi? Qurgan uyi besh yuz ming dollar, oyligini so'rasangiz ellik dollarga bormaydi. SHaharda, odamlarning ko'zini o'ynatib yaSHaydi. Qonun bilan ishi yo'q-ku!

SHERALI: - Ularning yo'rig'i boshqa. Qonunning o'zini ham sotib olishi mumkin. Shunga yarasha davlati bor, dasti daroz...

JAMSHID: - Siz ham tekinga qilmaysiz. Peshonangizga oftob tegadi.

SHERALI: - Shunaqa oftob tegmayoq qo'ya qolsin.

JAMSHID: - Sherali, jo'ra, yo'q deydigan taklif emas bu...

SHERALINING HOVLISI. SHOM

OSHxona eSHigi ochiq.

NODIRA qaynonasiga erkalanib suyangan, ora-sira eri Elbekka ko'z tashlaydi.

Malika ikki o'g'liga mehr bilan qarab qo'yadi.

Farid maSHq ko'rsatyapti.

Sherbek bilan Elbekning ko'zlarida havas va hayronlik.

MAKTAB HOVLISI. ChOSHG OH

(Sheralining yoshligi)

Katta tanaffus. O'quvchilar suroni.

Malika oriqqina, hali uncha barq urmagan, lekin o'ktam qiz, uning yonida sal to'ladan kelgan Maxfirat.

Maxfirat Malikaning engidan tortadi.

MAXFIRAT: - Sherali yana ilonini obkepti. Bular o'zi jinni bo'lgan. Birovi ilonchi, birovi burgutchi. Qarshiga doim aytaman: bir kuni Shu burguting ko'zingni o'yib oladi, deb...

Malika alanglab, sinfdoshlari qurShovida turgan Sheralini topadi.

MALIKA: - Sherali!

Sherali yalt etib qaraydi va jilmayadi.

Malika erka do'q uradi.

MALIKA: - YAnami? Sen bo'lding, iloning bo'ldi-da. Hozir yo'qot!

SHERALI: - E-e, bezarar bu.

Sherali ilonini qo'yniga soladi.

MALIKA: - Sendan sinfkom sifatida talab qilaman.

Sherali iljayadi.

Uning qo'ynidagi ilon ham ko'ylak orasidan boshini chiqarib, Malikaga tomon cho'ziladi.

MALIKA: - Viy-y, qurit buningni! Meni chaqmoqchi!

SHERALI: - Boshqa qizlar bilan ishi yo'q. Nega Shunaqa?

Malika qizaradi, yolg'ondan qovog'ini uyadi.

MALIKA: - Nima demoqchisan bu bilan?

SHERALI: - Yo'q, rosti. Senga yondaSHsam bo'ldi, bu ham kallasini chiqaradi. Qo'ymaydi...

QISHLOQ KO'ChASI. PESHIN

Sherali bilan Qarshi maktabdan qaytishyapti.

QARSHI: - Bitta gap aytaymi?

SHERALI: - Ayt.

QARSHI: - Tekinga emas-da. Sigaret olib bersang aytaman.

SHERALI: - Bo'lmasa, aytma. Sigaret o'pkaga zarar.

QARSHI: - Zo'r gap. Arziydi lekin.

SHERALI: - Shuni chekmasang-chi. Bo'ying o'smay qoladi.

QARSHI: - Fil trlisi nikotinni o'tkazmaydi. Ayniqsa qizili.

SHERALI: - Bari bir, zarar.

QARSHI: - Zarar, zarar... Topib olgan gaplaring Shu. Maxfirat ham burgut zarar deb miyani qotiradi. O'laksa eydi, tumShug'i to'la bakteriya emish, cho'qisa, kasal yuqtirarmish.

Sherali uni havas bilan eshitadi.

QARSHI: - Bularga hayronman, Malika ham jonivorga duSHman. Sherali ilonini tashlamasa, menga xomtama bo'lmasin, iloni meni rashk qiladi, depti Maxfiratga.

Sherali unga dovdiranqirab qaraydi.

SHERALI: - Rostdan Shunday deptimi? Aldama!

Qarshi kulib yuboradi.

QARSHI: -Rost... E-e, aytib qo'yibman-ku! Lekin sigaret oberasan.

Sherali birdan jo'SHib ketadi.

SHERALI: - Kel, o'zishma qilamiz!

QARSHI: - Katta ko'chada-ya?

SHERALI: - Ichimga sig'mayapman. YUgurgim kelyapti.

QARSHI: - Ha, tushunarli...

SHERALINING HOVLISI. SHOM

Hovlining bir chekkasida tappi uyilgan.

Uyum tappining yonginasi yotgan bir ilon xuddi tappiga qo'shilib ketgandek, zo'rg'a bilinadi.

Ilon hovlida maSHq ko'rsatayotgan Faridni kuzatayotgandek.

SHERALINING UYI. SHOM

Uyning taxmoni.

Ko'rpalar ustiga yopilgan choySHab tagida sandiq.

Sandiq tagida nimqorong'ilikda bir narsa yiltiraydi, yaqin borib qaraganda uning ilon ekani bilinadi.

Ilon boshini ko'tarib, gaplashayotgan odamlarni ko'rib turgandek.

Sherali Jamshidga jimjilog'i yo'q qo'lida choy uzatadi.

JAMSHID: - Yaxshilab o'ylab oling. Qiladigan ishingiz bitta – gazandani sog'asiz – pulini olasiz, tamom. U yog'i bizga tan. Zararkunandaning zaharidan katta bir narsalik bo'lib yursangiz, nimasi yomon? Men sizning o'rningizda o'ynab-o'ynab xo'p derdim.

Sherali erga qarab bosh chayqaydi.

SHERALI: - Jamshid aka, iloji yo'q gapni aytyapsiz.

JAMSHID: - Nega? Mana, qarang. Bu atroflarda ilon bormi – bor. Ko'zoynakli ilon yildan yilga janubdan bu yoqqa qarab tarqalib kelyapti. Siz – morboz, morbozning ishi ilon bilan, to'rtta bo'ldi – nima, qirqta bo'ldi – nima, hech kim Shubhaga bormaydi. Ha, morboz-da, Shuning ko'yiga tushgan, ishqivozlikka ko'paytiradi, deyishadi Kimning kim bilan ishi bor bu zamonda? Keyin, jo'ra, zaharni siz birovni o'ldirish uchun yig'maysiz-ku! Doriga! Ming-ming dardmand davo topadi bundan. Nega savob ishdan bo'yin tovlayapsiz, tushunmayapman.

SHERALI: - Jamshid aka, bu er bir ovloq joy, meni ham bir omi ekan deb o'ylamang. Men bu gaplarning hammasini bilaman. Ilonning zahri qancha kasalga davoligini ham, dunyo farmasevtikasidagi o'rnini ham. Aytaveraymi?

JAMSHID: - Xo'sh.

SHERALI: - Rossiyaday katta mamlakatning tibbiyotiga bir yilda bir kilogina zahar kerak. Shu qadar tanqis narsa bu. Er yuzida ikki yarim ming turda ilon bor. Shundan to'rt yuztacha turi zaharli. Har yili yarim million odamni zaharli ilon chaqadi. Shundan o'ttiz-qirq mingi o'ladi. Zahardan birinchi o'rinda ilon chaqqanlarni emlash uchun aksilzahar tayyorlanadi. Keyin quyanchiq, ishias, stenokardiya, gemofiliya, revmatizm... Hatto hozir rakni davolaydigan preparat ustida ishlashyapti.

JAMSHID: - Shuncha narsani bilib, yo'q deb turganingizga hayronman. Shu... kasb deymizmi, ishqivozlikmi, o'zi munosibmi sizga? To'g'ri, Hindistonda ko'p Shunaqalar. Kuni o'tmaganidan o'ynatadi. Gadoychilikday bir gap bu ham. YUrasizmi odamlardan pul tilanib, otarchilarga o'xshab. Sizga xazinani kalitini tutqazsak, yo'q deyapsiz.

SHERALI: - Jamshid aka, mana Shu uyim, ana, hovlida ayolim, bolalarim. Men doim uyga bamaylixotir kirib kelishni, kechqurun dasturxon atrofida yaqinlarim bilan bir burda nonimni beg'urbat baham ko'rishni, oqSHomlari tinch uxlashni istayman... Kunduzi pul deb chopib, kechasi pulni o'ylab qaltirab, ertalab yana pul... bizga to'g'ri kelmaydi. «Behuda zo'r belni sindiradi» - «Zo'ri behuda miyon meSHikanad» - o'zbek ham, tojik ham topib aytgan.

JAMSHID: - Ko'p o'qiysizmi, deyman. Kitobdan hech kimning kosasi oqarmayapti...

Taxmon tagidagi ilon sekin o'rmaydi.

Derazadan «Ya-a», «Hiy-ya» degan qiyqiriq eshitiladi.

Tashqarida Farid Elbekning qo'lini qayirib, Sherbekning elkasiga oyog'ini qo'yib, usul ko'rsatayotgan edi.

Bir kampir ikki qo'li bilan bir ilonni ushlab keladi.

Elbek boshini silkib-silkib, ilonni oladi.

Farid angrayib qoladi.

SHERALI: - Bu ukamiz choy-poy ichmaydimi? Chaqiraylik.

JAMSHID: - Qo'yavering. yoshlar o'zlari gurung qilaversin... Mana, buning gavdasiga qaramang, karatedan mamlakat chempioni.

SHERALI: - Shu-ya?

JAMSHID: - Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni. Bu bilan yursangiz hech qanday qurol-purol kerakmas. Filni ham o'zi tinchitadi.

Sherali hovlidan ko'zini uzadi, uning yuzi tundlashadi...

JAMSHID: - Shuning zaharining grammini tilloga olamiz. O'zi tog'u toshda yurgan bir gazanda, nima uchrasa chaqadi, Shungami, qaerda ko'rsang o'ldir, deyishadi. Bir qissada buni avval tuya bo'lgan, keyin fe'li yomonligi uchun erda sudraladigan qilib qo'yilgan deb, aytilgan. Tavba, chaqsa odamni o'ldiradi, bilib ishlatsa, odamga davo

bo'ladi. Bo'lmasa, bitta zahar. Toshu tuproq ichida sudralib yuribdi, zaharini hamma ham ololmaydi. Ololadigan odam olmaydi, menga tinchlik kerak deydi. Shu tinchlik bo'lmaydi endi.

TOF. KUNDUZ

(Sheralining xayollari)

Tog' ungirlari, qoyalar, xarsang toshlar.

Sherali tosh orasidan qochayotgan ilonga qarab yuguradi.

Ilon boshini ko'tarib daf qiladi.

Sherali qo'lini o'ynatib borib, ilonning bo'ynidan tutadi.

Sherali xarsang tosh tagiga qo'lini tiqib, ilonni sug'urib oladi.

Qoyaning kaftida ilon kallasini ko'tarib turibdi, Sheralining boshi sekin ko'tarilib keladi-da, chaqqon harakat bilan ilonni ushlab oladi.

Sherali cho'qqidan tushib kelyapti, qo'lida to'rtta ilon bilanglaydi. Ilon savatdan kallasini ko'tarib, Sheraliga tik qaraydi.

Sherali ham kiprik qoqmay ilonga tikiladi,

Nigohlar kurashi bir muddat davom etadi.

Ilon bunga dosh berolmay, kallasini tushiradi.

SHERALINING HOVLISI. SHOM

Hovlida qo'shnilarning ikki bolasi ham paydo bo'lgan.

Farid Sherbekni tik qo'yib, uning betiga, boshiga, ko'kragiga «tepib» mashq qilyapti.

Elbek Faridning harakatini beo'xShov takrorlab ko'rishga urinyapti.

Bolalar hayrat bilan tomosha qiladilar.

SHERALINING UYI. XUFTON

Uy devori burchagida ilon sekin yuqoriga ko'tariladi.

Jamshid bosiqlik bilan Sheraliga gap uqtiradi.

Sherali o'z o'ylariga g'arq bo'lib o'tiradi.

SHERALINING HOVLISI. KUNDUZ

JAMSHID (kadr ortidan): - Men, jo'ra, kambag'alchilikni bo'yniga olib, yana Shunga Shukr qilib yashayotgan odamlarni umuman tushunmayman. Keng dasht-dala, ko'm-ko'k o't, poda-poda mol boqsa bo'ladi. Lekin boqmaydi. Er bor, suv bor, lekin ekmaydi. Xudo bizni ham yaratib qo'ygan-da, deb ag'nab yotaveradi. Mana, qonun, qonun, deysiz. Qonun, ey odam, kambag'alchilikka mahkam yopish, sira boy bo'lma, deb aytmaydi. Teskarisi – bersang eyman, ursang o'laman deb yotaverma, yugur, el, chop, buguningdan ertangni yaxshiroq qil, deydi. Rizqingiz Shu dashtu

tog'larda o'rmlab yuribdi, sizdan boshqa odam terolmaydi, qo'lidan ham kelmaydi. Shuni qilish o'rniga qonunni pesh qilasiz...

Sherali qo'llarini kerib, cho'zilib yotadi.
Ilonlar uning atrofini qurshagan.
Ilonlar uning ustida chirmashib yotadi.
Uch-to'rttasi kallasini ko'tarib olgan.
Bir ilon uning yuzida sirg'aladi, kallasini ko'tarib, ko'ziga tikiladi.
Ilonlar morbozni xuddi yuz berajak xavfdan himoya qilib turgandek.

SHERALINING UYI. XUFTON

Ilon deraza pardasi ustida tebranib turadi.

JAMSHID: - Bu... podsholar ham otdan tushadigan joy qaerda?

SHERALI: - PoshSHolar?

JAMSHID: - Bir oyoqning chigilini yozsak, deyapman.

SHERALINING HOVLISI. XUFTON

ESHikdan Jamshid, keyinidan Sherali chiqadi.

Jamshid Faridga ma'noli qarab, «Bo'ldi, yig'ishtir», degandek imo qiladi.

Sherali qo'li bilan ishora qiladi.

Fira-SHirada hojatxona qaqqayib ko'rinadi.

Oshxona ichkarisida, qozon tepasida Malika kuymalanadi.

Sherali oshxona yoniga borganda o'ylanib to'xtaydi.

Sherbek hovlidagi obdastani ko'tarib suv olgani ketadi.

Tomosha tugaganidan hafsalasi pir bo'lgan bolalar Elbek bilan darvoza tomonga yuradilar.

Sherali oshxonaga kiradi.

JAMSHID: - Sen borib kel, men keyin.

FARID: - Shuncha uzoqqa quradimi? Chiroq-pirog'i ham yo'q. Anavi narsalari yurmasmikan?

JAMSHID: - E-e, kechasi o'tlatadigan narsa emas-ku.

FARID: - Aytib bo'ladimi? Billa boraylik. Boya ko'rdingizmi, bitta kampir ilonni «Manavi sog'onangni olib qo'y», deb ko'tarib kelsa, esim chiqib ketdi.

JAMSHID: - Yo'g'-e? Ko'rmabman. Tirikmi?

FARID: - E-e, Shunaqa tirikki! Bilanglab turibdi.

JAMSHID: - Ehtiyot bo'lish kerak ekan. Mayli, yur.

Sherali oshxonadan chiqadi.

Elkasida sochiq, qo'lida obdasta, dastSHo'y bilan Sherbek otasining yoniga keladi.

SHERBEK: - Ota, yomon kuchli odam ekan. Qo'limni, tomirini topib bir qisgan edi, jonim chiqib ketay dedi. Kurashaman desam, hech erini ushlatmaydi-ya. Meni ham, Elbek akamni ham o'ziga SHogird qilmoqchi.

SHERALI: - Kim yaxshi gapirsa, laqqa tushib o'tirma, o'g'lim. Avval kimligini bil.

Qir belida yakka badraf, uning oldida turgan Jamshid chekayotgan sigaret cho'g'i qorong'ida miltillaydi.

Qishloqning tungi bir-biriga aralash tovushlari chigirtka chirillashi, mashina motori ovozi, juda olisda traktor tarillashi, ora-sira itlarning hurishi eshitilib turadi.

Bu osoyishtalikni tuyqusdan Faridning baqirishi buzadi.

FARID: - Voy-dod! Eb qo'yadi! Qaranglar!

Farid baqirgancha, bir qo'li bilan SHimini tutib, hojatxona eshigidan otilib chiqadi.

Jamshid ham beixtiyor dodlab, o'zini bir-ikki qadam orqaga tashlaydi.

FARID: - Eb qo'yadi! To'pponchani oling. «Jip»da!

Hojatxona ichidan angillab bir it qochib chiqib, o'zini yonboshga uradi.

Sherali bilan Sherbek hay-haylab bu yoqqa yuguradilar.

Malika oshxonadan chopib chiqadi.

Ichkaridan chaqaloq yig'isi eshitiladi, Nodira oshxonadan chiqib, uyga yuguradi.

SHERALI: - Tishlamadimi?

FARID: - E-e, xudo bir asradi, chaqqonlik qilib qoldim. Ayiqmidi o'ziam?

Sherbek kafti bilan og'zini yopib, piqirlab nari ketadi.

Sherali kulib yuboradi.

SHERALI: - Bizning Tuzikboy-ku! Bechoraning yuragini yordingiz.

JAMSHID: - Nima, o'rgatilganmi?

SHERALI: - O'zimizning kuchuk. Kirib panalab yotgan-da.

Jamshid xoxolab kuladi. Farid o'ziga kelolmay hovliqib gapiradi.

JAMSHID: - Ayiq emish-a.

FARID: - Yo'g'-e! Juda kattayu! Juni uzun!

SHERALI: - Ana-yu. Qarang.

FARID: - YOmon irilladi lekin! Kesak izlab paypaslasam, qo'limga juni ilindi. Po'stak ekan, yulaman deb bir tortganimni bilaman... Shunday irilladi! Bir sakrashda uchib chiqdim.

JAMSHID: - ishtonni to'g'rila. Yo'qotib qo'yasan.

Farid SHimining kamarini tortadi.

FARID: Qo'l ham mashqda tosh qotgan-da. Bir tortganda jonini sug'urib oldim o'zim ham.

JAMSHID: - Kuchuk odam tilida baqirib yuborgan ekan-da.

Hamma SHaraqlab kulib yuboradi.

Darvoza tomondan halloslab kichkina SHERALI yugurib keladi.

SHERALI: - Adash bovo, otam, chop, nima Shovqin ekan, deb yubordilar.

Uning ketidan Qarshining o'zi ham ko'rinadi, u hali etib kelmasidan Shovqinlaydi:

QARSHI: - Sherali! Nima gap? Bezararmi? Nevarangga, Sherali, chop, bobongnikida tinchlikmikan, dedim-u, o'zimning ham sabrim chidamadi.

SHERALI: - Hech gap yo'q. Kuchugimiz mehmonni qo'rqitibdi.

Qarshi mehmonlarga endi e'tibor qiladi.

QARSHI: - Iya, aytmabsan-ku... Mehmon, damlikkinamisiz?

Jamshid xushlamay qo'l beradi.

QARSHI: - Biz bolalikdan jo'ra. O'g'limga ham Shuning otini qo'yganman. Sherali, tort mehmonlarni bizning uyga.

JAMSHID: - Yo'q, rahmat! Vaqtimiz yo'q. Qaytamiz.

Qarshi Sheraliga najot so'rab qaraydi:

QARSHI: - Qanday bo'ldi endi?

Sherali kiftini uchiradi.

QARSHI: - Jonliq so'yardik-da. Sheralining mehmoni – bizning ham mehmon edi-da. Mana, qo'lini ko'rdingizmi? Shu meni deb bo'lgan-da...

MAKTAB HOVLISI. ERTALAB
(Sheralining yoshligi)

Yigirma chog'li o'g'il-qiz.

Qizlarning qo'lida har xil narsalar: non o'rog'li dasturxon, dasturxonga o'ralgan tog'ora, bo'z xaltalar.

Qizlar ko'ylak tagidan sport SHimlari kiyib olganlar.

O'g'il bolalarning yarmidan ko'prog'ida «olimpiyka», qolgani oddiy odmi kiyimda.

MALIKA: - Hamma narsa olindimi? Ko'k pichak kimda?

MAXFIRAT: - Menda.

MALIKA: - Jiz o'zimga. Qarshi?

QARSHI: Menda o'nta mineral suv. O'nta limonad SHERALIDA. Etar?

SHERALI: - Choyni o'sha yoqda qaynatamiz. O'tin chopishga bolta ham oldim.

MAXFIRAT: - Qarshi, arqon nimaga?

QARSHI: - Tog' joy. Kerakli toshning og'irligi yo'q.

MAXFIRAT: - Seni bilaman, bir baloni boshlama tag'in?

TOF. ERTALAB

Qoya etagidagi qirda dasturxon atrofida davra qurib o'tirgan bolalar bir hovuch bo'lib ko'rinadi. Magnitofondan taralayotgan musiqa yuqoridan baland-past eshitiladi.

Qarshi osmonga tikiladi.

Osmonda burgut davra yasab uchadi.

Malika yonidagi SHERALIGA SHivirlaydi.

MALIKA: - Bugun tiyilib o'tirarsan?

SHERALI: - Gap bitta. Mana, o'tiribman-ku.

Qarshi sekin turib arqonni elkasiga oladi.

Maxfirat unga norozi qaraydi.

MAXFIRAT: - Bilaman, polapon ushlashga chiqyapsan.

QARSHI: - Bir aylanib kelay.

SHERALI: - Bodilanma. Tinch o'tiraylik.

MAXFIRAT: Hozir hammamiz aylanishga chiqamiz-ku.

QARSHI: - Men bir pasda tushaman.

Qoyada burgut uyasi. Uyada ikki burgut polaponi.

Qarshi toshdan-toshga tarmashib, chaqqon o'rlab kelyapti.

Bu tomonda uyaga qarab ilon sudrallyapti.

Uyada ikki burgut polaponi ko'rinadi.

Qarshi burgut in qurgan tosh ortidan ko'kragigacha ko'tariladi va o'ziga tikilib turgan ilonga ko'zi tushadi.

Ilon bir siltanadi va... uni chaqib oladi.

Qarshi «Voh!» deb o'zini orqaga tashlaydi va qoya bag'ridagi kaftdek joyga yiqiladi.

Pastdagi bolalar sakrab turib, qichqirib yuboradilar.

MAXFIRAT: - Qarshi! Bir narsa de!

SHERALI: - YOmon yiqilmadingmi? Biz ko'rmayapmiz.

MALIKA: - Uchib tushdi. Chiqish kerak.

BIR O'QUVChI: ISHqilib toshga tushmagan bo'lsin.

BIR O'QUVChI QIZ: - Voy, qo'rqib ketyapman. Otamdan so'ramagan edim.

Sherali boltani qo'liga olib, toqqa tarmashadi.

Pastda qiy-chuv, to's-to'polon boshlanadi.

Bir ilon huSHdan ketib yotgan Qarshining tagiga kirib ketadi. Ikkinchisi nariroqda boshini ko'tarib turadi.

Esxonasi chiqib ketgan Maxfiratni Malika quchoqlab oldgan.

SHERALI: - Qarshi, Qarshi!

Sherali ikkinchi ilonni keskin harakat bilan ushlab, pastga uloqtiradi.

SHERALI: - Chaqibdi-ku! Qarshi, jo'rajon, ko'zingni och!

Qarshining himarilgan bilagida juft teshikdan qon sizib chiqadi.

Pastdan bolalarning xitobi eshilib turadi.

MALIKA: - Sherali! Nima qilibdi? Nega indamaysan?

MAXFIRAT: - Nega Qarshining o'zi ko'rinmaydi? Sherali!

BIR O'QUVChI: - Bir gap bo'lganga o'xshaydi.

IKKINChI O'QUVChI: - Sherali! Bir narsa de!

MALIKA: - Bunisiga ham bir gap bo'ldimi?

Sherali cho'ntagidan ustara olib, Qarshining bilagidagi ilon chaqqan joyni tiladi va lab bosadi...

Ko'ylagi etagini yirtib, Qarshining bilagini ilon chaqqan joydan yuqorirog'ini bog'laydi.

SHERALI: - Mana, yaxshi bo'ldi. Qarshi, odamni qo'rqitma, jo'ra, ko'zingni och!

Qarshini belidan ko'tarmoqchi bo'lib, tagiga qo'l tiqadi va voy-voylab qo'lini tortib oladi.

Bir zum qo'lini changallab o'tirib qoladi.

Keyin o'ziga kelib, arqonning uchini pastga tashlaydi, bolalarga «osilib chiqinglar», deb ishora qiladi...

Keyin... qo'lini toshga qo'yib, bolta bilan jimjilog'ini chopib tashlaydi.
Qo'lidan tizillab qon otiladi. Erda jimjiloq likillaydi.

Bolalar belidan chandib bog'langan Qarshini tushiradilar.

Sherali huSHidan ketar darajada, ko'krigidan arqon o'tkazilgan, yuqoridan bir o'quvchi arqonni mahkam changallagan, yonida ikki o'quvchi sal gandraklasa, qo'ltig'idan tutadi.

Maxfirat Qarshining tepasida vahimada qotib turadi.

Malikaning ko'zi to'la yosh, Sheraliga termiladi.

KASALXONA, KUNDUZ

Ikki karavotli xona. Birida Sherali, birida Qarshi.

Ikkalasiga ham osma ukol qo'yilgan.

Qarshi boshini burib, Sheraliga minnatdor qaraydi.

Sherali unga ko'zini qisib qo'yadi.

SHERALINING HOVLISI. XUFTON

Jamshid asabiy ahvolda Sheraliga gap uqtiradi.

Sherali boshini egib jim eshitadi.

Farid nariroqda aylanib yuribdi.

SHERALINING UYI. XUFTON

Ilon yana taxmon tagiga kirib ketadi.

SHERALINING HOVLISI

Sherali oshxona tomonga qaraydi.

OSHxona derazasidan Malika imo qiladi.

Sherali bosh irg'aydi va Jamshidni ichkariga manzirat qiladi.

SHERALI: - Qani, Jamshid aka. O'-o', Farid uka, ichkariga!

Elbek oshxonadan patnis ko'tarib chiqadi.

Patnisdagi kosalarda SHo'rvaning suvi chayqaladi.

Sherbek lagan to'la go'sht ko'tarib o'tadi.

SHERALINING UYI, XUFTON.

Dasturxon ustida Jamshid, Farid, Sherali.
Jamshidning yuzi tund.
Sherali g'ash.
Farid tez-tez ikkalasiga qarab qo'yadi.

SHERALI: - Tuzuk olmayapsizlar. Bizda mehmonga osh emas, SHO'rva osiladi.
JAMSHID: - Yo'q. Edik. Endi turaylik.
SHERALI: - Allamahal bo'ldi, bugun yotib qolinglar.

Farid Jamshidga xavotir bilan qaraydi.

Taxmon tagida ilon yiltiraydi.

JAMSHID: - Samarqand moshinga ikki qadam. Hali qiladigan ishlarimiz bor.
Dasturxonga fotiha o'qiylik.
SHERALI: - Bu yog'i qandoq bo'ldi?
JAMSHID: - Hali kelimiz. Hozir ruxsat bersangiz. Qani, omin!

Farid engil tortib, fotihaga qo'l ochadi.

SHERALINING HOVLISI. XUFTON

Uyum tappi yonida ilon gajaklanib yotadi.
Jamshid, Farid o'tadi.
Sherali ularni kuzatib chiqadi.
Sherbek va Elbek ularga ergashadi.
OSHxona derazasidan Malika bilan Nodira qarab qo'yadilar.

UY. KEChASI (Malikaning yoshligi)

Mahliyo dasturxonning gajimini o'ynaydi.
Egamberdi yonboshlab olgan, o'zini vazmin tutishga intiladi.
Dasturxonda choynak, ikki piyola, bir likopchada novvot.

Mahliyo dasturxon gajimini o'ynashni qo'yib, eriga sinovchan qaraydi.

MAHLIYO: - O'zingiz bilasiz-ku, lekin otaning davrida bunaqa erka o'sgan bola, keyin ro'zg'or tutarmikan?
EGAMBERDI: - Menga ham Shunisi yoqmayapti-da. Boy oilaga beramiz deb, baloning uyasiga tiqib qo'ymaylik.
MAHLIYO: - Keyin ko'zini ochirmaydi.
EGAMBERDI: - Ochiq eshik keladi-da endi. Bu yoqda o'qishini bitirdi.
MAHLIYO: - Qizingizning ko'ngliga ham qarash kerak.

EGAMBERDI: - Bultur gap ochganda, o'qishi bitsin-chi, degan edim.

MAHLIYO: - Umidlantirgan ekansiz-da. YAna kelishadi unda.

EGAMBERDI: - Haydab solmayman-ku, qatnasa qatnar.

MAHLIYO: - Hammasini bilib turib, nega aniq javob qilmadingiz?

Egamberdi SHaxd bilan qaddini rostlab, chordona quradi.

EGAMBERDI: - Ey, menga qara. Senlarning aytganlaring bo'lmaydi! Ko'ngli deysan. Yuvsa ketadigan bo'yoq-da.

Mahliyo jim qoladi, eriga sekin er ostidan suzilib qaraydi.

EGAMBERDI: Menga bunaqa qarama! Uyiga borsam, ko'ngil xotirjam o'tirolmayman. Bir umrga yashashi kerak. Ilonxonaga qiz beramanmi? Yo tavba! O'zlari qanday yotar ekan? Molgami, qo'ygami, bor, ana, odamga o'xshab zotdor kuchukkami ishqiboz bo'lsa, mayli edi.

Mahliyo boshini ko'tarib, eriga tik qaraydi.

MAHLIYO: - O'qiyapti-ku, mana, moldo'xtirlikka. Bitirib kelsin, ishingiz tushib borarsiz hali. .

Egamberdi o'rnidan turadi, boshidagi qalpog'ini echib, qoqib-qoqib qayta kiyadi-da, tashqariga yo'l olayotib, burnining tagidan to'nqillaydi.

EGAMBERDI: Ikki xotin gapni bir joyga qo'yib olib, yana mendan gap onglamoqchi bo'lasan.

Mahliyo labidan ip qochganini ko'rsatmaslik uchun yana boshini egib, dasturxonning gajimiga yopishadi.

EGAMBERDI: - Yo xotin olsin yo ilonlarini quchoqlab yotaversin. Gap bitta. Kelsa, odamini eshikdan qaytaraman... Hali ostonangni bosib o'tgani yo'q o'zi, sening alhaming olti. Kelsin hali...

Eamberdi eshikni qars yopib chiqib ketadi.

Mahliyo mamnun jilmayib qoladi.

DARVOZA OLDI. TUN.

«Jip» lapanglab darvozadan tisariladi.

Sherbek qo'li bilan ishoralab, mashina chiqishiga ko'maklashadi.

Sherali bilan Jamshid indamay qarab turadilar.

JAMSHID: - Kaptarxona manavi tomondami?

SHERALI: - Ha, kelishda bu yoqqa qarab burilgan yo'lingizdan to'g'ri ketadi.

JAMSHID: - Chiroyli joylarmi?

SHERALI: - Biz o'rganib ketganmiz. Yaxshi joylari ko'p.

JAMSHID: - Mayli, yana bir o'ylang.

Jamshid Sheraliga SHivirlyaydi.

JAMSHID: - Og'ayni, bu hammaga doston qiladigan gap emas. Faqat o'zingiz biling.

Sherali indamaydi.

«Jip» qayrilib, yo'lga to'g'ri bo'ladi.

Sherbek bilan Elbek Faridga qo'l ko'tarib xayrlashadi.

Sherali boshini silkitib qo'yadi.

«Jip» gurillab joyidan qo'zg'aladi.

Osmonda to'lin oy.

KO'ChA. TUN

Osmonda to'lin oy.

Pastda tog' orasidagi qishloq.

El yotgan, uylarda chiroq o'chgan bir payt. Faqat yakkam-dukkam hovlilarda chiroq yoniq.

Ikki odamning qorasi ko'rinadi.

Qarshi va Sheralining tovushlari eshitiladi.

QARSHI: - Aytganman, bugunga kelishganmiz.

SHERALI: - Haydab solmasa bo'ldi.

QARSHI: - Endi nimaga qo'rqasan? Bo'ldi endi, non sindi!

SHERALI: - Fe'lini bilasan-ku.

QARSHI: - Qanaqa fe'li? Bu yog'i sen ustun. Sovchi qo'yganlarga yo'q dedi-ku. Seni deb.

SHERALI: - Qo'rqmayapman-u, yuragim o'ynab ketyapti. Shu... o'zi chiqsa bo'lmasmikan? Yangasi kerak emas edi.

QARSHI: - Yanga bo'lmasa, bo'lmaydi. Avval yanga chiqadi, ko'nmagan bo'ladi, sovg'ani berasan, noz qiladi, o'-o', keyin qiz bilan uchashtiradi.

SHERALI: - - Muncha ko'p gapirasan. O'zing borganda yoningda edim-ku.

QARSHI: - O'zing so'rayapsan, men tushuntiryapman. Men bilan uchinchi, to'rtinchi qallicqa borganimda borganasan. Hamma qiziq birinchisida, keyin oson ko'chadi. Birinchisida sen bilan borishga niyat qilgandim, o'qishdan kelmading... Shu erdan oshib o'tamiz.

SHatir-Shutur SHox-SHabba singani eshitaladi.
Ikki do'st chetan devordan oshib tushib, cho'qqayib oladilar.

SHERALI: - Uxlab yotishibdi-yu!

QARSHI: - Nima, butun qishloq uxlamay, seni karnay-surnay bilan kutsinmi?
Muncha joniqasan?..

Chirog'i o'chiq uy derazasidagi oqarib turgan parada qimirlaydi.
Qarshi panalab borib, derazani chertib, SHivirlab chaqiradi.

QARSHI: - Gulbahor yanga, o'-o', Gulbahor yanga.

Shu payti yonboshdan bir it irillab chiqadi.

Qarshi qochib kelib, Sheraliga uriladi.

Ikki do'st jon holatda chetanga tarmashadi.

Sherali ihrab qo'yadi.

Itning vovullashi, qars-qurs, shatir-shuturning ichida Qarshning to'ng'illagani eshitaladi.

QARSHI: - Kelishgan edik-ku, nega kuchugini boylamagan?

Uy eshigi ochilib, chiroq yarq etib yonadi.

Mahliyo chiqadi.

MAHLIYO: - Sag'ana qolgur! Tur, yo'qol!

Mahliyoning qo'lida kaltak paydo bo'ladi.

Itning uni o'chib, dumini qisgancha qochadi.

Hovli chirog'i o'chadi.

Mahliyo ichkari kirib ketadi.

YAna jimlik.

SHERALI: - Onasi chiqdiyu! Endi bo'lmas?

Qarshi hiringlab kulib, yana chetan devorga tarmashadi.

QARSHI: - Bo'l-ey! Tong otguncha turaveramizmi... Bizni xotin ham kutib yotgandir.

Qarshi chertmasdanoq derazaning o'zi ochiladi.

GULBAHOR (o'zi ko'rinmaydi): - Qarshijon, kuyovning faqat ishtoni yirtildimi, yo bir joyini kuchuk yulib ketdimi?

Ichkaridan piqir-piqir kulgi eshitiladi...

MALIKALARNING UYI

Malika boshiga ro'mol tashlab, xuddi erga kirib ketayotgandek egilib olgan.

Sherali ham gilamdan ko'zini uzmaydi.

MALIKA: - Choydan ichasan... ichasizmi?

Sherali Malikaga yalt etib qaraydi.

SHERALI: - Ha. Choy...

Sherali choynakka qo'l uzatadi.

Malika ro'moli tagidan qo'lini cho'zib, choynakni o'ziga tortib oladi.

MALIKA: - Bundan keyin choyni o'zim quyaman.

Malika ro'molning bir chekkasini ko'taradi, qorong'ida oppoq tishlarini ko'rsatib jilmayadi.

Sherali unga bir qarab, ko'zini olib qochadi.

MALIKA: - Muncha qaltiraysiz? Ilongizdan ham yomonmanmi? Gapdan oling.

SHERALI: - Nimani gapiray?

MALIKA (mayin SHivirlab): - Yaqinroq o'tiring, gapimiz eshitilyapti... Qo'rqmang, chaqib olmayman.

Sherali lablarini yig'ishtiro olmay, Malika tomonga suriladi...

SHERALINING UYI, TUN

OqSHom, uy ichi.

Sherali to'rda, o'ychan yo'l qarab o'tiradi.

Malika erkalatib Sherbekning boshini silaydi, Sherbek, g'ashi kelib, onasining qo'lini olib qo'yadi.

Nodira chaqaloqni Elbekka berib, o'zi choynakni olib chiqadi.

Sherbek otasining nigohini tutishga intiladi.

Malika Sheraliga choy uzatadi.

MALIKA: - Qiziq odamlar ekanmi? Birovi chibjinglagan, kattasi bama'niga o'xshaydi-yu, lekin ko'zi sovuq. Nimaga kelishibdi?

SHERALI: - Hay, odamzotning ishi ko'p, tashvishi bisyor...

MALIKA: - Sizni ham o'y bosib qoldi? Munday ochiling.

SHERALI: - Ochiqman. Besh-to'rtta ilon ushlab bering deb kelishibdi, Shuni o'ylab o'tiribman.

MALIKA: - Juda ishondim gapingizga...

SHERALI: - Bolalarim, damlaringni olaveringlar. Sherbek, barvaqt turgin, benzin kelarmish.

ELBEK: - Ota, ertaga bir o'n besh ming kerak edi.

SHERALI: - Onangdan ol. Nimaga?

ELBEK: - Bitta kirza etik obqo'ymoqchi edim...

Uyda Sherali bilan Malikaning o'zlari qolgan.

Malika erining nima deyishini kutadi.

SHERALI: - Endi, xotin. Ochiladigan bo'lsam, gap bunday. Bular zahar deb kepti. Juda ko'p kerak ekan.

Malikaning zahrasi uchib ketadi.

MALIKA: - Yo'-yo'-yo'q! Boshidan qolsin. Menga qolsa, Shu borini ham quriting. Men ham uyda emin-erkin yuray. Bir kun oqshom bo'lmasangiz, mijja qoqmay chiqaman.

Sherali sinovchan nazar tashlaydi.

SHERALI: - Bu yog'ini eshitmading: grammiga ming-ikki ming dollar beramiz, deyapti.

MALIKA: - Qancha? Bir balosi bo'lmasa, Shudgorda quyruq na qilur. Katta pulning g'urbati ham katta bo'ladi, xo'jayin. Shuncha odam dollarsiz ham yashayapti.

SHERALI: - Men yo'q dedim.

MALIKA: - To'g'ri qilibsiz. Xudoning berib turgani ham etadi. Elchilik - hamma nima bo'lsa, biz ham Shu. Boshingiz omon bo'lsa bo'ldi... Otasi, Shu kasb... Endi yoshligingizda bir qiziqish bo'lgan. Hozir nima kerak? Mana, Shundan g'alva ham kelyapti. Qarshi jo'rangiz o'sha tog'da polapon olaman deb, ilon chaqqandan keyin «burgutga yo'lamayman», deb bir qasam ichdi, mana qutuldi... Lekin SHaharga borganda zooparkka bir tusharmish.

YO'L. TUN

Dasht tuni, oy yorug'i.

Unda bunda to'p chiroqlar miltillaydi.

Farid «jip» rulini changallab, yo'lga tikiladi.

JAMSHID: - Uyqung kelmayaptimi? Yo qolish kerakmidi?

FARID: - Qolsak ham, men «jip»da yotardim. E-e, uyiniyam...

JAMSHID: - Itdan qo'rqqaning Shuncha o'tib ketdimi?

FARID: - Aka, gap kuchugida emas. Uyida o'tirsam, xuddi birov tepamda turib, ket, tezroq jo'na, deganday bo'laverdi. Bir balosi bor uyida, bo'lmasa, ilonlari chuqurdan chiqolmaydi.

JAMSHID: - To'g'ri-ey, senda ham Shunday bo'ldimi? Meni ham bir og'ir yuk bosib kelayotganday bo'laverdi. Kim biladi, bir umr ishi Shu, ilonning xislati odamga o'tarmikan?

Farid Jamshidga yalt etib qarab qo'ydi.

FARID: - Rost-ey! Odamga ham juda og'ir qaraydi.

Farid keskin tormoz beradi.

Jamshid ikki qo'li bilan «torpedka»ga tiralib qoladi.

Bir yaydoq ot yo'lni kesib o'tadi.

SHERALINING HOVLISI. TUN

Chuqurdagi ilonlar oy nurida tovlanadi, ularning harakati sekin.

SHERALINING UYI. TUN

MALIKA: - Nosinashta odamlar. menga qolsa, yondashmang. Voy... er yutkur, gap poylab yotibdi! Ana, taxmon tagida.

Sherali irg'ib turadi.

U chaqqon harakat bilan ilonni taxmon tagidan tutib chiqaradi.

Ilon unga qarab kallasini ko'taradi.

SHERALI: - He, jonivor, nega uyga beruxsat kirding...

U ilonga yana allanarsalarni aytib pichirlagancha eshikka yuradi.

Ilon xuddi eshitayotgandek, uning qo'lida tebranib boradi.

SHERALINING HOVLISI. TUN

Tappi yonidagi ilon Sheraliga qarab cho'ziladi.

Sherali ikki qo'lida ikki ilon ilonxonaga qarab yuradi.

YO'L. TUN

Ro'paradan kelayotgan mashinalar farasi ko'zni oladi.

Farid uzoqni yoritayotgan chiroqlarini yaqinga o'tkazadi.
Qarshidagi mashinada ham Shu holat takrorlanadi.

FARID: - Aka, yuramizmi yalinib? O'zimiz qilsak-chi?

JAMSHID: - Nimani?

FARID: - Shuning zaharini olishni.

JAMSHID: - Sen-a? Kuchuk irillasa ishtoning tushib ketadi.

FARID: - Men hayotda yoniga yo'lamayman...

JAMSHID: - Bo'pti-da.

JAMSHID: - Aka, bunday: bozorda mardikor ko'p. Ertalabdan kechgacha qora mehnatda, lekin kuni o'tmaydi. Shularga ushlatsak... Donasiga munchadan desak, jon deydi. Zaharini olishga ham ilonchi topilar. Quritish, sotish cho't emas.

Jamshid ko'rsatgich barmog'i bilan chakkasini nuqiydi:

JAMSHID: - Mana Shu ering ishlamaydi-da. Mardikorga ham jon shirin! Ushlashni bilgani senga bermaydi. O'zi sotadi. Talabgor ko'p. Zaril odam, necha pul desa, oladi. Zaharini olishni bilsa, unga vositachi kerak emas. Mardikor emish, bittasi gullab qo'ysa, urdi xudo!.. Sal sekinlat. Shoshi borgan joyga, sekin ham etasan.

FARID: - Diqqatim oshib ketyapti. Bu bitishli xotinning o'g'il tug'ishi qiyin...

JAMSHID: - Sen yaxshilab qarab oldingmi?

FARID: - Ha, aka, toza qarab oldim. Hovlisining hamma yog'i ochiq, uylarining eshigiga qulf solmas ekan bular. Anavi narsalari yurmasa bo'ldi.

JAMSHID: - Hammasi chuqurda ekan-ku. Chiqarsa hamsoya-pamsoyanikiga ham o'tib ketishi bor. Endi, buni Soliga aytib yurma. Odam-da, seskanadi.

FARID: - Mayli, aytmayman... Bugun nima kun?

JAMSHID: - Seshanba.

Farid bir chap qo'li rulda, o'ng qo'lida barmoqlarini bukib, sanaydi.

FARID: - ChorSHanba, payshanba, juma. Juma bularning bir yaqinini-da to'y. O'g'li aytdi. Hammasi to'yda bo'ladi. Kuchugi ham ergashib ketar ekan.

JAMSHID: - Juda zo'r! Topgani ikkovingniki. Bu zahar axtargan degan Shubha qilmasligi uchun. Ko'p narsani biladi, lekin damdo'z. O'zi ishlaydimi deyman. Zahar bo'lishi kerak. Buncha ilonni boshiga uradimi bo'lmasa? O'ynatishga ikkita-uchtami bo'lsa etadi-da.

Jamshidning qo'l telefoni tovuSH beradi.

Jamshid telefoni oladi.

Jamshid «jip»da.

Fedor Dmitrievich o'z uyida.

JAMSHID: - Fedor Dmitrich, ish pishganicha yo'q hali.

FEDOR DMITRIEVICH: - Sabab?

JAMSHID: - YO qo'rqyapti, yo ichdan pishgan. Yana ko'ramiz.

FEDOR DMITRIEVICH: - Vaqt yo'q, nimani ko'rasan yana? Pulini aytdingmi?

JAMSHID: - Aytdim, lekin savdoni ochmadim.

FEDOR DMITRIEVICH: - Sen vaziyatni tushunmayapsan? yo kalamushlik qilyapsanmi?

JAMSHID: - Fedor Dmitrich! Bu nima deganingiz? Yigirma yildan beri siz tufayli odam bo'lib yuribman-ku. Nega o'zimni chetga olaman, bormi o'zi Shunaqa chet?!

FEDOR DMITRIEVICH: - Unda nega birdaniga narxini aytmayсан? Nega o'smoqchilaysan? Misrmi senga, savdoni bir bauntidan boshlaydigan. Hozir pulning betiga qarash kerak emas. Hozir bizga foyda emas, tirik qolish kerak, tushunaysanmi? Ko'ndir nima qilib bo'lsa ham.

JAMSHID: - Tushundim, tushundim.

FEDOR DMITRIEVICH: - Quruq tushunganingni nima qilamang?

JAMSHID: - Boshim bilan javob beraman.

FEDOR DMITRIEVICH: - Boshing hozir bizga ham kerak bo'lib turibdi, Rashid. Gap Shundaki, Shu ikki-uch kun ichida ahvol keskin o'zgardi. Olimni kuzatganimizga qaramay, Bishkek ochilib qoldi, Boku ham chatoq, Tallinda ham surishtiruv boshlandi. Olim gullab bo'lgan ekan. Bu mamlakatlar bir-biri bilan chaplashishi mumkin, yovlashishi mumkin, lekin maxfiy xizmatlari yalakatmag'iz ishlaydi. Bozor kasod, lekin yo'q narsaning o'rnini to'ldirish kerak. Shuning uchun nima qilib bo'lsa ham, yangi ishni yo'lga qo'yasan. Zudlik bilan. Keyin, to hosil to'planguncha, qozoqning tulkitumog'i, turkmaning cho'girmasiningmi tagiga kirib, ko'rinmay turasan. Umid faqat sendan. Qilolsang, yashab ketasan. Bo'lmasa, o'lib o'lolmayсан, tirik ham yurolmayсан...

«Jip» kattaroq chuqurga duch kelib ko'tarilib tushadi.

Jamshid Faridga baqiradi.

JAMSHID: - Ko'zingga qarab haydasang o'lasanmi?

FARID: - UZR aka, uzr.

JAMSHID: - O'zi uzrimiz chiqib yotibdi-yu... Sen ham bir narsani tushunasanmi o'zi?!..

Farid mashinani sekinlatadi, Jamshidga botinmay qarab qo'yadi.

QISHLOQ KO'ChASI. KUNDUZ

Ikki ko'cha kesishgan joyda otliq jarchi qo'lini og'ziga karnay qilib qichqiradi:

JARChI: Ho'-o', eshitmadim demanglar... Shu kelar SHanba Ayirg'ichdagi Absattor cho'liqnikida chupurron to'y! Butun jamaatingiz bilan. Ho'-o', Shu kelar SHanba...

Bir xotin – OYSARA hovlida turib, jarchining da'vatiga quloq tutadi.

Ikki hovli o'rtasidagi to'siqdan ikkinchi xotin GULASAL qaraydi.

GULASAL: - Kimnikiga dedi?

OYSARA: - Anav Absattor-chi. Ayirg'ichdan.

GULASAL: - Qaysi Absattor?

OYSARA: - Anav, Chiniboevning qizini olgan.

GULASAL: - Sulton bovoning bolasimi?

OYSARA: - O'sha chupurron to'y beryapti.

GULASAL: - To'yi yaqinda bo'lgandi-ku? Darrov bolasi kestiradigan bo'ldimi? Tavba, vaqtning o'tishini...

OYSARA: - Hademay xotin oberaman desa, kecha kestiruvdi-ku, deysiz...

SHERALINING HOVLISI. KUNDUZ

Malika hovlida tik turgancha, erga qarab, jarchiga quloq soladi. Sherbekning qo'lida temir ilgak, ilonxonada kuymalanadi.

MALIKA: Eh, xudoyim! Qo'y zormandani. Ermaging Shu. Chiq bu yoqqa!

SHERBEK: Sizning ham mendan boshqa ermagingiz yo'q. Gapiraverasiz.

MALIKA: - Voy, onangga shunday deysanmi? Shularning fe'li o'zingga urib ketyaptimi, deyman.

Sherbek onasiga norozi qaraydi.

Ichkaridan Elbek chiqadi.

MALIKA: - Absattor akang to'y qilyapti.

SHERBEK: - Bilaman.

MALIKA: - Bilsang, bor-da. Bizga nima xizmat de. Qarash. Otangning shuncha qo'yini boqib beradi. Ko'p yaxshiligi tekkan bizga, axir.

ELBEK: - Ona, boya keldik o'sha yoqdan. Hozir yana ketamiz. Men Tilab aka bilan emni gaplashdim, bu ilonlardan xabar olay, kechasi kelmaymiz-ku.

MALIKA: - He, iloni boshidan qolsin! Otang qaerda?

SHERBEK: - Qaerda bo'lardi? Absattor akanikida.

MALIKA: - Elbek, kelin tayyor bo'lsin, bizlarni ham olib ketasizlar.

SHERALINING UYI. TUN

Derazadan oy yorug'i oqib kiradi va olisda bo'layotgan to'y musiqasi elas-elas eshitiladi.

Oy nuriga to'la hovlidan bir sharpa o'tadi.

ESHik zaif g'iyqillab ochiladi, sharpa sekin ichkari kiradi.

Oyning g'ira-shira yog'dusida taxmonda yopig'li choyshabning gullari mayin tovlanadi.

Deraza pardasi bilinar-bilinmas qimirlaydi.

Pardacho'p ustida o'rmlayotgan ilonning terisi xira yiltiraydi.

Derazadan to'yning past shovqini sizib kiradi.

SHarpaning nafas olayotgani, yuragi dukurlagani eshitiladi.

Parda ustidagi ilon ko'lankasi odam SHarpasi bo'yniga Shap etib tushadi.

Odamning «Ah!» deb ingrangani, past tovuSHda voy-voylab qolgani eshitiladi.

SHERALINING HOVLISI. TUN

Uy eshigi taraqlab ochiladi.

ESHikdan bo'ynini changallab olgan odam otilib chiqadi va darvoza tomon yuguradi.

Ko'cha tomondan mashinaning gurullab, keskin qo'zg'algani eshitiladi.

QISHLOQ. KO'ChASI. KUNDUZ

Sheralining darvozasi oldida «jip» to'xtaydi.

Ichkaridan Sherali chiqadi.

Jamshid eshikni ochib, mashinadan tushmay qo'lini uzatadi.

Ko'rishadilar.

JAMSHID: - Mashinaga chiqing. Zarur gap bor.

Sherali sal ikkilanadi.

SHERALI: - Yo'l bosib kepsiz. Uyga kiring. Shu erda gaplashaveramiz..

JAMSHID: - Kaptarxonani bir ko'raylik. Bir narsa tayinlab yuborishgan edi.

Xursand bo'lasiz.

Sherali kiftini qisadi-da, keyin mashinaga chiqadi.

Mashina SHitob bilan elib boradi.

Qarshi qo'lini soyabon qilib, yonidan Shuvillab o'tayotgan «jip»ga qaraydi.

«Jip»ning oynalari qora, ichidagi odamlar ko'rinmaydi.

Oynalari qora «jip» uning yonidan Shuvillab o'tib ketdi,

TOF. KUNDUZ

Moviy osmon, unda-bunda oq bulutlar.

YOvvoyi kaptarlar gala-gala uchadi.

Sayxonlikda tartibsiz sochilgan katta-katta toshlar o'tlayotgan suruvga o'xshaydi.

Teparoqda g'or og'zi qorayib ko'rinadi.

Jamshid qo'lidagi xivichni o'ynaydi.

Farid qo'lidagi pichoqni qayroqtoshga qayrab qilovini oladi.

JAMSHID: - Sherali! Hozir jo'ra ham deymiz, og'ayni ham. Hatto ota deb yalinishga ham tayyorman. Chunki ishimiz tushib turibdi. Taqdirimiz sizga bog'liq. Hammasini ochiq aytaman. Gapimni eshitishning javobi ham bor.

SHERALI: - Uh-h... Jamshid aka. Men xudo berganiga qanoat qilib yurgan oddiy bir odamman. Nima qilasiz qo'limdan kelmaydigan ishga majburlab.

JAMSHID: - Endi tonyapsizmi, jo'ra. Oldin aytdingiz-ku qo'lingizdan kelishini.

SHERALI: - Men siz aytgan ishni qo'limdan kelmaydi, qo'limdan kelganda ham qilolmayman, deyapman...

Jamshid ezilib Faridga qarab qo'yadi.

Sherali yana uh tortadi va Faridning qo'lidagi pichoqqa Shunchaki qarab o'tiradi.

Pichoqda quyosh o'ynaydi.

Faridning ko'zlari qisilib ketgan.

Forning ustki labida bitta, pastda ikkita ilon yotibdi.

Tog' maysalari SHamolda qaltiraydi...

JAMSHID: - Keling, jo'ra, erkakchasiga gaplashib olsak. Endi o'zingizni u yoqqa, bu yoqqa tashlamang. Bir yoqadan bosh chiqaraylik. Bizga zahar nihoyatda kerak. Sizning ham tuvagingiz tilladan bo'ladi. Bizga qo'shilgan, Sherik bo'lgan odamni biz hech qachon dar qo'ymaymiz. Nima yordam beraylik? Albatta, bu chuquringiz torlik qiladi, katta basseynmi, yo usti yopiq terrarium erto'lami... moshin kirib chiqadigan bo'lsin, yana ilon ushlash, zaharini olish, quritish uchun asbob-uskunami, yana nimalar kerak, Shularga qancha ketadi, hammasini muhayyo qilamiz. Boshda qancha pul kerak?

Sherali Jamshidga og'ir qarab bosh chayqaydi.

Farid o'rnidan turib ketadi.

JAMSHID: - Gapiring! Albatta, eb ketishga hech kim bermaydi, lekin biz prosentsiz, hech bir SHartsiz beramiz. YAna, pulni pul qilib, yo dollarga chaqib qaytarmaysiz. Birga qiladigan ishimiz hisobidan chegirib tashlayverasiz.

Sherali Jamshidga o'ychan tikilib qoladi.
Farid yana qaytib o'tiradi.
Jamshid Faridning qo'lidagi pichoqni oladi.

JAMSHID: - Endi... mana, Shu tog'laring hammasi sizniki. Bu yog'i SHahrisabz, Urgut, Dehqonobod, Boysuntog', Bobotog'... Men o'zi geografiyadan uch olganman. Qaerda Shu o'rmalasa, hammasidan tutishni yo'lga qo'yish mumkin. O'zingizmi, cho'pon-po'ponmi, kimga ushlatsangiz, ixtiyoringiz. O'g'ilchalarga ham o'rgatib yaxshi qilgansiz. Ular ham yoningizda... Sira qiynalmaysiz. Xaridoringiz bor – ishonchli. Puli naqd. Shu paytgacha bunaqa katta ish qilmaganingiz uchun o'ylanib o'tiribsiz... Kelishdikmi?

SHERALINING HOVLISI. KUNDUZ

Malika hovlidagi karavotda nabirasini o'ynatib o'tiradi.
Elbek beda o'radi.
Darvozaxonada mashina tagidan Sherbekning boshi ko'rinadi.
Qarshi kirib keladi.

QARSHI: - Malika! Yaxshimisan? Bizning jo'ra qani?

MALIKA: - Boya chiquvdi. Kep qolar.

QARSHI: - Mehmonlar uyga kirdimi?

MALIKA: - Yo'q. Qanaqa mehmonlar?

Qarshi Sherbekning yoniga qaytadi.
U mashina tagidagi chuqurga egilib, Sherbekka allanarsalar deydi.
Sherbek chuqurdan sakrab chiqadi va bosh irg'ab Qarshining gaplarini ma'qullaydi.

SHERBEK: -Aka!

ELBEK: - Nima deysan?

SHERBEK: - Bu yoqqa keling.

ELBEK: - O'sha erdan aytaver.

QARSHI: - Kel, degandan kel-da.

Malika ularga tashvishlanib qaraydi.

MALIKA: - Kelin! Nodira. Erbekni olib turing.

Malika bularning oldiga keladi.

MALIKA: - Muncha g'uding-g'uding qilasizlar? Tinchlikmi?

QARSHI: - Yo'q, hech gap yo'q. Bizning jo'ra toqqa nimaga ketdi, deb so'radim-da.

MALIKA: - Qanaqa toqqa? Bir yoqqa ketsa, menga aytmay ketmaydi.

QARSHI: - Shu, boya. Anov kuni kelgan mehmonlarning moshini toqqa qarab uchib o'tdi-da. Ichida jo'ram yo'qmikan, deb kelganim.

MALIKA: - Moshinlaring yuradimi?

SHERBEK: - YUradi. Tuzatdim. Nima edi?

MALIKA: - Bo'lmasa, hayda. Boyadan beri nimaga ko'nglim g'ash deyman... Hozir, ro'molimni olay.

QARSHI: - Men ham boraman...

TOF. KUNDUZ.

Farid nariroqda betoqat yuradi.

Jamshid bir qo'lida pichoq, bu qo'lidagi xivichni shart-shart kesadi.

SHERALI: - Jamshid aka, bitta o'xshatish qilay. Mana, men shtangachi polvon emasman. SHtangani ko'tarib ko'rmaganman. Ko'tarsam ham, bilmasam, oltmishmi, etmishmi kilo ko'tararman. Siz menga hozir ming kilo ko'tarasan deyapsiz. Uni qimirlatishga ham kuchim etmaydi-ku. Bekorga belim chiqib, mayib bo'lganim qoladi...

Jamshid qo'lidagi pichoqni SHart erga sanchadi.

SHERALI: - O'zingiz ayting, nima qilishim kerak? Aqlli odam, o'zi tushunar, bir ish chiqmasligini bilib, meni tinch qo'yar deb umid qildim. Qarasam, avj olib ketyapsiz. «Kamaz» kirib chiqadigan erto'la terrarium, to'rt yuz - besh yuz ilon, zahar biznesi – ichim qaltirab yashab, pulingizni boshimga uramanmi?! Ovloq joy ekan, odamlariga pul va'da qilsam bo'ldi, hamma aytganimni qiladi, deb o'ylayapsizmi? Nima ovloq qishloqda hukumat yo'q, qonun yo'q deb o'ylayapsizmi?..

O'tlar orasida ilon o'rmalashiga xos harakat seziladi, SHitob bilan ilgarilayotgan ilonning o'zi ham ko'rinadi.

JAMSHID: - Ey, men ham seni o'zi tushunar deb pa-palab keldim.

SHERALI: - Senlamang!

JAMSHID: - Sen kimsan o'zi? Bola-chaqang bilan quritib yuborishimni bilasanmi? Kim bilan o'ynashyapsan?

Farid sakrab kelib yonidan to'pponcha chiqardi.

JAMSHID: - To'nka, nega seni yolg'iz bu yoqqa olib chiqqanimni bilasanmi? Falsafadan munozara qiladi deb o'ylading Shekilli?

SHERALI: - Senlamang. Men sizni odam deb gapiryapman.

JAMSHID: - Nima? Gapimga yo xo'p deysan, yo yo'q bo'lasan, deb qulog'ingga quyib kelyapman. Chumchuqday joning bor.

SHERALI: - Ana Shu chumchuqday jonim xudoning qo'lida.

JAMSHID: - Birinchi o'rinda xun to'laysan! Odamimizni ilon chaqtirib o'ldirganing uchun. Ha, Qarshidan kelayotganda, dashtda bir daraxtning tagida to'xtagan ekan, ustiga ilon tushib chaqibdi, deb bosdi-bosdi qildik.

Sherali bir zum Jamshidga hayron qarab turadi.

SHERALI: - Ko'nglim sezgan edi-ya, qo'shnilar kechasi uyingga moshin kelib-ketdi deganida.

JAMSHID: - Kuning Shu erda tugashini ham ko'ngling sezayotgandir?

SHERALI: - Siz hammaning ko'nglini adashtirasiz. O'ylagan edim lekin. Xudo urdimi, odam-ku, bunchalikka bormas, degandim.

JAMSHID: - O'ylagan eding!.. He, onangni...

SHERALI: - So'kinma! Onasi beqadr esh-shak, borib o'zingning onangni so'k.

Jamshid uchib turadi.

JAMSHID: - Farid! Otma!

Sherali baqirib yuboradi.

SHERALI: - To'pponcha bilan qo'rqitasanmi. Ot otsang! Xudoning senlarga ham atalgan g'azabi bordir!

For labida ilon chayqaladi. Xuddi surnay tovuSHiga o'ynayotgandek.

Jamshid birdan bosiladi, Sherliga og'ir tikiladi.

JAMSHID: - Tog'dan yiqilibmi, ilon chaqibmi o'lasan hozir. Senga o'qni xayf qilib o'tirmaymiz.

Sherali ilkis joyidan turib, Jamshidga tashlangan payti Farid «Hiy-yya» deya sakrab, uning ko'kragiga tepadi.

Sherali yiqiladi.

Ikkinchi ilon o't orasidan boshini ko'tarib, bularga qarab turgan bo'ladi.

O't orasida kelayotgan yana bir ilon «jip» g'ildiragiga ro'para chiqib to'xtaydi. «Jip»ning orqa eshigi ochiq edi.

Jamshid erda yotgan Sherlining ustiga egiladi:

JAMSHID: - O'ldimi?

FARID: - Yo'g'-ov... nafasiga tepdim. Hozir ko'zini ochadi.

Sherali ko'zini ochib, tepasiga egilgan ikkovini ko'radi. Jamshidning yuzi beriroq, Farid nariroqda.

JAMSHID: - Qanday ekan? YO'tadigan joyingni ko'rib qo'ydingmi? Oxirgi marta so'rayapman. Shuncha gapni bilib, yo'q deydigan odam tirik qolmaydi.

Sherali gavdasini o'nqlab, o'tiradi, nafasini rostlaydi.

SHERALI: - Gunohga botmanglar. Bu er muqaddas. O'chi bor.

Jamshid qahrli iljayadi:

JAMSHID: - Farid, sol!

Farid qiyqirib, Sheralining bo'ynidan uradi. Sherali gavdasini sal tortib ulguradi, ammo zarba kuchli edi, yonboshga qulaydi.

O't orasidan chiqib kelayotgan ilon ko'rinadi.

JAMSHID: - O'ldimi?

FARID (halloslab): - Bunaqa zarbadan tirik qolmaydi.

Farid bo'shshib erga o'tiradi, to'pponchani yoniga, erga qo'yadi.

FARID: - Ko'nglim ayniyapti, Rashid aka. Ichim ag'darilib ketay deyapti.

JAMSHID (ovozi titrab): - Odam o'ldirganda Shunaqa bo'ladi. Tur, murdaga ozor berma mayli. Ketdik. To'pponcha qolmasin.

Farid o'tirgan joyida ikki qo'li bilan erga tiraladi, o'g'jiydi.

Jamshid o'girilib, «jip» tomonga yuradi.

Ilon Faridning orqasida paydo bo'ladi.

Zum o'tmay Faridning baqirig'i eshitaladi.

Jamshid keskin o'giriladi.

Farid belini changallab erda dumalanadi, uning yonida bir ko'zoynakli ilon boshini ko'tarib, Jamshidga o'nqlanib turar edi.

Jamshid Faridga tomon intiladi, ilon keskin harakat bilan unga daf qiladi.

Jamshid esxonasi chiqib o'zini orqaga tashlaydi.

Ilon vishillaydi. To'pponcha ilonning yonida yotgan edi.

Jamshid erga sanchilgan pichoqqa intilganda ilon yana unga tashlanadi.

Jamshid qochadi, nariroqqa borib, orqasiga bir o'giriladi.

Farid, qisq ko'zlari og'riq va alamga to'la, unga tikilib qoladi.

Chayqalib burilgan «jip» g'ildiraklari g'artillab bir aylanib oladi-da, o'qday uchadi.

For labidagi ilon pastga tushadi, Faridning yonidagi ilon o't orasiga kirib ketadi.

Sherali o'sha alpozda yotibdi.

Uning ko'z oldi asta-sekin yorishadi-da, gurunlashib o'tirgan Malika, Sherbek, Elbek, chaqalog'ini ko'targan Nodira ko'rinadi. Sherali ularni chorlab baqiradi, tovushi chiqmaydi.

Shu payti burgutini quchoqlab olgan Qarshi ko'rinadi.

U Malikadan Sheralini so'raydi, Malika unga «Kaptarxona tomonda» degandek ishora qiladi. Hammalari bu tomonga tikilishadi, lekin Sheralini ko'rmaydilar.

O'qituvchi Xosiyat To'raeva qarib, bir yaxshi kampir bo'lib qolgan, oftobShuvoqda ko'zi qamashib o'tiribdi, «Ha, meni qo'rqitganlaring esingdami», deyayotgandek jilmayadi.

Haligi eshak mingan chol ilon bilan qo'rqitgani uchun Sheraliga ko'rsatgich barmog'i bilan imlama do'q qiladi.

Malika cholga diqqat bilan qarab qoladi. «Kimga dashnom beryapti?», degandek va Sheralini ko'radi-da, jim tikilib turadi. Elbek va Sherbek Malikaga umid bilan qaraydilar...

Nodira bolasini ko'tarib, Sheralini ko'rsatadi.

Qarshi Sheralini ko'rib qolib, burgutini ko'rsatib kuladi.

Shu payti Sheralining qulog'iga Faridning: "Amak, amakijon! O'lib qolaman! YOrdam bering", degan tovushi kira boshlaydi.

TOF. KUNDUZ

Og'riqdan Sheralining yuzlari tirishib ketadi - zo'rg'a ko'zini ochadi.

Uning oldida Farid kuchanib, buralib yolvorayotgan edi.

FARID: - Amak, o'lyapman! Bir balo qiling! Juda og'riyapti. Tirik qolsam bo'ldi. Unutmayman.

Sherali bo'ynini ushlab ingranadi, sekin o'mganini ko'taradi.

U qiynalib yonchig'ini kavlab, hech narsa topolmaydi.

Erga sanchilgan pichoqni ihrab sug'uradi, tig'i uchiga barmoq tegizib ko'radi.

«JIP» SALONI

Orqa o'rindiqda ko'zoynakli ilon boshini ko'tarib, mashina harakatiga monand tebranib ketayotir.

TOG'. KUNDUZ

Farid inqillab yig'lab yuboradi.

FARID: - Tashlab qochdi-ya. Amakijon, kechiring! Yaxshi ham o'lib qolmabsiz. Mana, o'zim o'lyapman.

Sherali Faridning yoniga emaklab boradi.

U Faridning belidagi ilon chaqqan joyni pichoq bilan tiladi va labini bosadi...

Pastki yo'lda mashina ko'rinadi. Rulda Sherbek, yonida Qarshi. Qarshi qo'li bilan tepadan enayotgan «jip»ni ko'rsatadi. Mashinaning orqa o'rindig'ida Malika, kichkina Sherali va Elbek ko'rinadi. Malika ro'molini qimtib olgan.

«Jip» tor yo'lda to'g'ri bularga qarab keladi. Sherbek jon holatda rulni buradi, «jip» chang-to'zon bilan o'tib ketadi.

ChORRAHA. KUNDUZ

Kira mashinalar yo'lovchi poylaydi.

Kirakashlar mozorning pastak devori tagida qarta suradilar.

«Jip» qishloq tomondan o'qday uchib keladi.

Kirakashlar qartani tashlab, unga hayron qarab turadilar.

YOSH KIRAKASH: - Sherali morboznikiga serqatnov bo'lib qoldi Shu.

YOSHi kattaroq kirakash yonchig'ini kavlab, sellofan xaltacha olib, kaftini to'ldirib nos otadi.

«Jip» chorrahada burilayotganda yo'l chekkasiga chiqib ketadi. Chang-to'zon ko'tariladi.

YOSHI KATTA KIRAKASH: - Buni ajal quvyapti-yov...

YO'L. KUNDUZ

«Jip»ning orqa o'rindig'idagi ilon keskin harakat bilan oldinga tashlanadi.

Asfaltning qorasi qip-qizil qizg'aldoqzorni SHart ikkiga bo'ladi.

Jamshidning baqirgani, keyin motor gurillashi aralash qasir-qusur, SHaraq-Shuruq tovushlar eshitiladi.

SHERALINING HOVLISI. BOSHQA KUN. ASR

Sherali, bo'ynida plastmassa g'ilof, karavotda yonboshlab yotibdi.
Ko'rpacha ustida chaqaloq uxlayapti.
Malika choynakdagi choyni qaytaradi.
Malika Sheraliga choy uzatadi.
Sherali elkasini yostiqdan uzib, ihrab chordona quradi.

SHERALI: - YO pirim!

MALIKA: - Og'ridimi?

SHERALI: - Yo'q, maza qilyapman.

MALIKA: - Qanday ekan? Ordona qolgurning bo'ynidan Shunday qisasizki, og'zi ma-munday katta ochilib ketadi.

Malika og'zini katta ochgan ilon bo'lib berganiga Sheralining kulgisi qistaydi-da, inqillab bo'ynini silab qoladi.

SHERALI: - Ey, kuldirma-ey.

MALIKA: - Er yutsin o'shalarni. Bunisi ham o'lsa yaxshi bo'lardi. Nima qilardingiz yordam berib...

SHERALI: - Qo'y bunaqa gaplarni. Odamning umri qachon poyoniga etadi-yu, qachon jon taslim qiladi – ollohga ayon. Bandaning jonini banda emas, Azroil oladi. Demak., Faridning nasibasi uzilmagan. Jamshid akaniki bitgan ekan.

MALIKA: - Tekis, to'g'ri yo'lda Shunaqa avariya bo'ladimi?

SHERALI: - Shuni ayt... Choydan uzat.

MALIKA: - Ha-ya, aytganday, Qarshi aka sizga xaloskorim deb soyangizga ko'rpacha to'shab yuradi-yu, ichida g'ashligi bor.

SHERALI: - Ja orani buzishga ustasan-da. Nima keragi bor bunaqa gaplarning?...

MALIKA: - Orani buzish deganingiz nimasi? Bersa, Sherbekdayga, sizday odamning bolasiga beradi-da. Otasining bolasi-da, Ilonxonaga qiz beramanmi, alohida uy qilib chiqsa, mayli, degan emish.

SHERALI: - Nima deyapsan o'zi? Munday tushuntir.

MALIKA: - Nimasini tushunmaysiz? O'g'lingizning jo'rangizning qiziga ishqiy tushibdi, jo'rangizning qizining ham ko'ngli bor ekan, Maxfiratdan so'rattirsam, jo'rangiz yo ilonini desin, yo qizimni, depti...

2006 y.